

SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATI

umumiy tushunchalar, sohada
yaratilgan imkoniyatlardan keng
foydalanish bo'yicha

USLUBIY QO'LLANMA





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATI

umumiy tushunchalar, sohada yaratilgan imkoniyatlardan
keng foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma

**«ADOLAT» milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2023**

Sud-ekspertlik faoliyati: umumiy tushunchalar, sohada yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent, 2023-yil. «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi. – 115 b.

*O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri o'rinbosari
A.Z. Muhammadiyevning umumiy tahriri ostida*

Tuzuvchilar:

J. Nuritdinov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i

M. Bazorov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

N. Qalqonov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti direktori

A. Baratov – Toshkent davlat yuridik universiteti kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrasini mudiri

F. Jurayev – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi bosh maslahatchisi

Sh. Valijonov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi katta maslahatchisi

Mazkur qo'llanma keng jamoatchilik vakillarining sud-ekspertiza haqidagi dastlabki tushuncha va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash hamda sohadagi mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish maqsadida davlat sud-ekspertiza muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanmadan tijorat uchun foydalanish maqsadida nusxa ko'chirish va qo'llanmaga mualliflar roziligisiz o'zgartirishlar kiritish taqiqlanadi.

MUNDARIJA

Kirish	5
I bob. Sud ekspertizasi to‘g‘risida umumiy qoidalar	7
1. Sud ekspertizasi nima va kimlar sud eksperti sifatida faoliyat yuritishi mumkin?.....	7
2. Sud ekspertizasini o‘tkazish asoslari va muddatlari.....	8
3. Qo‘shimcha va qayta sud ekspertizalari.....	11
4. Komissiyaviy va kompleks sud ekspertizalari.....	12
5. Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish	13
6. Sud ekspertlarining huquq va majburiyatlari	14
7. Mutaxassis fikri va uni berish tartibi qanday?.....	15
8. Sud ekspertizasi obyektlari va ularni taqdim etish tartibi.....	16
II bob. Sud-ekspertiza turlari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar hamda ular hal etadigan savollar	18
III bob. Sud-ekspertiza sohasiga oid eng ko‘p beriladigan savollar va ularga javoblar	42
IV bob. Davlat sud-ekspertiza muassasalari hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari to‘g‘risida ma’lumotlar	77
1. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida o‘tkaziladigan ekspertiza turlari to‘g‘risida ma’lumot.....	77
2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspertiza-kriminalistika Bosh markazi va uning hududiy bo‘limlari haqidagi ma’lumotlar.....	96
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi hamda uning hududiy bo‘limlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.....	109
4. Boshqa davlat sud-ekspertiza muassasalarida o‘tkaziladigan sud-ekspertiza turlari to‘g‘risida ma’lumotlar	114
5. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari to‘g‘risida ma’lumotlar.....	115

KIRISH

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sud-ekspertlik faoliyati dolzarb sohaviy yo'nalishlardan biri bo'lib, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklari kafolatli himoya qilinishida, fuqarolarning ishonchini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sohani tubdan takomillashtirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sohani tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, **so'nggi besh yilda soha faoliyatiga oid** 2 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta Farmoni va qarorlari, Hukumatning 7 ta qarori hamda 4 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6256-son Farmon alohida o'ringa ega.

Farmon bilan «**O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi**» va uning ijrosini ta'minlash maqsadida 2021 – 2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan «**Yo'l xaritasi**» tasdiqlandi. Konsepsiya **quyidagi vazifalarni** o'z ichiga qamrab olgan:

- sud ekspertlarining **xolisligi** va **mustaqilligini ta'minlash**, sohadagi normativ-huquqiy bazani muntazam takomillashtirib borish;
- sud-ekspertlik faoliyatini **kengaytirish** hamda **sud ekspertizalarining sifati va ishonchliligini oshirish**;
- **nodavlat sud-ekspertiza institutini** rivojlantirish va boshqalar.

Shuningdek, Farmonga muvofiq, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga **shartnoma asosida**, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq sud-ekspertiza **tadqiqotlarini o'tkazish huquqi** berildi.

Hukumatning tegishli qarori bilan **51 xil sud ekspertizasi turlarini o'z ichiga olgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq** o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha **tadqiqotlar ro'yxati tasdiqlandi** hamda tadqiqot natijalari yuzasidan **mutaxassis fikri** beriladi.

Mazkur huquq kelgusida jismoniy va yuridik shaxslarga o‘z huquqlarini sud va tergov organlarida himoya qilishlarida yaqindan ko‘mak ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Farmonga asosan, iqtisodiy, fuqarolik va ma‘muriy ish yuritishda **advokatga** sudga qadar tayyorgarlik va sud jarayonida **ekspert xulosasini** sud muhokamasida taqdim etish uchun davlat va nodavlat sud-ekspertiza muassasalarida shartnoma asosida **advokat so‘rovi bilan ekspertiza o‘tkazish tashabbusi huquqi berildi**.

Bu o‘z navbatida, **advokatning so‘roviga asosan** ekspertiza tayinlashga doir masalalarning huquqiy asoslari yaratilib, sudda tortishuv instituti to‘laonli ta‘minlanishiga asos bo‘ldi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi islohotlarning davomi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi «Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi 73-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan **Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom** tasdiqlandi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma keng jamoatchilik vakillarini sud-ekspertiza sohasi haqida ilk tushuncha va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta‘minlash hamda sohadagi mavjud imkoniyatlardan keng foydalanilishi maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo‘llanma bilan tanishish orqali fuqarolar sud-ekspertiza sohasi haqida umumiy tushunchalarga ega bo‘lib, sud ekspertizasini tayinlash sabablari, uni o‘tkazish muddatlari, sud-ekspertizani amalga oshiradigan ekspertiza muassasalari to‘g‘risida ma‘lumotlar, sud-ekspertiza turlari va bunday ekspertizada hal etiladigan savollar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

I bob. SUD EKSPERTIZASI TO‘G‘RISIDA UMUMIY QOIDALAR

1. Sud ekspertizasi nima va kimlar sud eksperti sifatida faoliyat yuritishi mumkin?

«Ekspertiza» lotincha so‘z bo‘lib, «tajribali» degan ma‘noni anglatadi. Lekin ijtimoiy hayotda birmuncha kengroq ma‘noda tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonuni¹ (keyingi o‘rinlarda – «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonun)ning 3-moddasiga ko‘ra, **sud ekspertizasi** – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma‘muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakat hisoblanadi.

Mazkur moddaga ko‘ra, **sud eksperti** deganda, xulosa berish uchun fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs tushuniladi.

Ushbu moddaga asosan, **davlat sud eksperti** deganda – davlat sud-ekspertiza muassasasining o‘z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o‘tkazuvchi sud eksperti tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–4125-son qaroriga asosan **nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini** tashkil etish hamda **44** turdagi sud-ekspertizalar yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazishga ruxsat berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, ushbu Nizom nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma‘muriy sud ishlari bo‘yicha sud ekspertizasini o‘tkazishga ixtisoslashtirilgan, shtatida sud eksperti sertifikatiga ega mutaxassislar bo‘lgan tashkilot hisoblanadi.

Shuningdek, «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, sud eksperti sifatida davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Boshqa tashkilot xodimi sud ekspertizasini uni tayinlagan organ (shaxs) tomonidan mazkur tashkilotga berilgan topshiriqni bajarish tartibida o‘tkazadi.

Ishda sud eksperti sifatida ishtirok etish uchun jalb etilgan **boshqa jismoniy shaxs** biron-bir davlat sud-ekspertiza muassasasi shtatida turmaydi va sud

¹ Sud ekspertizasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1633102>

ekspertizasini uni tayinlagan organning (shaxsning) topshirig'ini bajarish tartibida o'tkazadi.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar sud eksperti sifatida jalb etilishi mumkin emas. Shaxsning sud eksperti sifatida ishtirok etishini istisno etadigan boshqa holatlar protsessual qonunda nazarda tutiladi.

Sud eksperti ish holatlarini tekshirishda faqat o'ziga topshirilgan sud ekspertisasi predmetiga taalluqli va xulosa berish uchun ahamiyatga molik masalalar bo'yicha ishtirok etadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov organlari, sud va sud muhokamasidagi taraflar sud ekspertiga faqat unga topshirilgan sud ekspertisasi va u tomonidan berilgan xulosa munosabati bilan murojaat etishga haqli.

Sud eksperti faqat o'zi tomonidan berilgan xulosa va shaxsan o'tkazgan tekshirishlari yuzasidan so'roq qilinishi mumkin.

Sud ekspertini u xulosa berguniga qadar so'roq qilish taqiqlanadi.

2. Sud ekspertizasini o'tkazish asoslari va muddatlari

«Sud ekspertisasi to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o'tkazish asoslaridir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Advokatura to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga asosan advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog'ida iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan ekspertiza o'tkazilishini so'rash huquqi belgilangan.

Ushbu Qonunning 7¹-moddasiga asosan advokat so'roviga ko'ra ekspertiza xulosasini olish muddatlari davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilanadi hamda advokat so'roviga orderning ko'chirma nusxasi, sud ekspertisasi advokat so'roviga ko'ra tayinlanganda esa o'rganish obyektlari va to'laqonli ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan ish materiallari ham ilova qilinadi.

Yuqorida ko'rsatilgan organlardan boshqa biror-bir organ yoki shaxs tomonidan **sud ekspertizasini o'tkazish uchun tayinlashga qonun hujjatlarida ruxsat etilmagan.**

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6256-son Farmoniga asosan, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga **Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga ko'ra shartnoma asosida** jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq, sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqot o'tkazish huquqi berilgan. Bunda, tadqiqot natijalariga ko'ra **mutaxassis fikri** taqdim etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 706-son qaroriga muvofiq, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, mazkur ro'yxatda **51** turdagi sud-ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishga ruxsat berish belgilangan.

Bugungi kunda ushbu ro'yxatdagi tadqiqot turlari bo'yicha davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o'tkazilib, natijasiga ko'ra **mutaxassis fikri** taqdim etilib kelinmoqda.

Mazkur huquq jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini sud va tergov organlarida himoya qilishlariga xizmat qilmoqda.

Ma'lumot uchun.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 39¹-moddasiga asosan **tergovga qadar tekshiruv** quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

- 1) ichki ishlar organlari;
- 2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari – ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoxud o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;
- 3) davlat xavfsizlik xizmati organlari – qonunga ko'ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari hamda turmalarning boshliqlari – shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir

ishlar, xuddi shuningdek mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;

5) davlat yong'indan nazorat qilish organlari – yong'inlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

6) chegarani qo'riqlash organlari – davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

7) olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari – bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

9) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari – byudjet, soliq va valyuta to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikka doir ishlar, shuningdek elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha;

10) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo'linmalari – voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashga, sud hujjatini ijro etmaslikka, sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish jarayoniga aralashishga, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo'yicha;

11) Soliq qo'mitasining Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari – bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha.

13) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo'linmalari – qonun bilan ularning ish yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha.

14) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati – uning yurituviga taalluqli ishlar bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 38-moddasiga asosan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv:

1) ichki ishlar organlarining;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining va uning joylardagi bo'linmalarining;

3) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining va uning joylardagi bo'linmalarining;

4) Davlat bojxona qo'mitasining va uning joylardagi bo'linmalarining;

5) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo‘linmalarining surishtiruvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining **35-moddasiga** asosan **jinoiyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni** prokuratura, ichki ishlar organlarining va davlat xavfsizlik xizmatining tergovchilari olib boradilar.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomning 8-bandiga muvofiq, sud-ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) asosida tadqiqotlarni o‘tkazish muddatlari sud ekspertizalarining **hajmi va murakkabligiga, shuningdek, sud ekspertining ish hajmiga ko‘ra 30 kun doirasida** belgilanadi. Sud ekspertizasi turlarining murakkablik darajasi ekspertiza tashkilotining yuqori turuvchi idorasi, shuningdek, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari uchun Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tadqiqotlarni o‘tkazishni 30 kun mobaynida bajarish mumkin bo‘lmagan taqdirda, ekspertiza tashkiloti rahbari muddat o‘tishidan 3 ish kuni oldin asoslangan holda ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga yozma yoki elektron ravishda xabar qiladi hamda ular bilan kelishgan holda qo‘shimcha muddatni belgilaydi.

Advokat so‘rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq tadqiqotlar o‘tkazish muddatlari sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan **shartnomalarga asosan** belgilanadi.

3. Qo‘shimcha va qayta sud ekspertizalari

«Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 18-moddasiga ko‘ra **qo‘shimcha** sud ekspertizasi xulosadagi bo‘shliqlarning o‘rnini to‘ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.

Xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud ekspertizasini o‘tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda **qayta** sud ekspertizasi tayinlanadi.

Qayta sud ekspertizasi tayinlanganda sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) oldiga ilgari qo‘llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to‘g‘risidagi masala qo‘yilishi mumkin.

Qayta sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qarorda yoki ajrimda qayta sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) birinchi (oldingi) sud ekspertizasi xulosasiga qo‘shilmaganligi sabablari ko‘rsatilishi lozim.

Qayta sud ekspertizasini o‘tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o‘tkazgan sud

eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirish o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomning 17-bandiga asosan, sud ekspertizasini tayinlashga vakolatli organ (shaxs) nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud eksperti tomonidan o'tkazilgan sud ekspertizasi xulosasiga qo'shilmagan taqdirda, qayta sud ekspertizasi faqat davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan amalga oshirilgan birlamchi sud ekspertizasi xulosasi bo'yicha qo'shimcha va qayta sud ekspertizasi, shu jumladan, komissiyaviy va kompleks sud ekspertizasi **nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti hamda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasa (tashkilot)** tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Agar, bir vaqtning o'zida ham qo'shimcha, ham qayta sud ekspertizasini tayinlash uchun asoslar yuzaga kelgan hollarda qayta sud ekspertizasi tayinlanadi.

4. Komissiyaviy va kompleks sud ekspertizalari

Ba'zi tadqiqotlar ularni o'tkazishda bir necha ekspertlar ishtirok etishini taqozo qilishi mumkin. Bunday hollarda ekspertiza komissiyaviy ekspertiza yoki kompleks ekspertiza shaklida o'tkaziladi.

«Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasiga ko'ra, sud ekspertizasi **bir xil (komissiyaviy sud ekspertizasi)** yoki **turli xil (kompleks sud ekspertizasi) sud-ekspert ixtisosligidagi bir necha sud eksperti tomonidan** o'tkazilishi mumkin.

Sud ekspertizasining sud ekspertlari komissiyasi tomonidan o'tkazilishi sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) yoki mazkur ekspertizaning o'tkazilishini tashkil etuvchi davlat sud-ekspertiza muassasasi yoxud boshqa tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.

Sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi o'z oldiga qo'yilgan masalalarni hal etish zarurligidan kelib chiqib, o'tkaziladigan tekshirishlarning maqsadi, ketma-ketligi va hajmini kelishib oladi.

Komissiyaviy sud ekspertizasi o'tkazilayotganda sud ekspertlarining har biri tekshirishlarni to'liq hajmda o'tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi.

Sud ekspertlari umumiy fikrga kelganidan so'ng birgalikdagi xulosani yoki xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi.

Sud ekspertlari o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

Kompleks sud ekspertizasi ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir necha tekshirish o'tkazish yo'li bilangina aniqlash mumkin bo'lgan hollarda tayinlanadi.

Kompleks sud ekspertizasini o'tkazishda sud ekspertlarining har biri o'z vakolati doirasida tekshirishlar olib boradi. Kompleks sud ekspertizasining xulosasida sud ekspertlarining har biri qaysi tekshirishlarni va qancha hajmda olib borganligi, qaysi holatlarni shaxsan o'zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko'rsatiladi. Sud ekspertlarining har biri xulosaning ushbu tekshirishlar bayon etilgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo'ladi.

Olingan natijalarni baholashga va umumiy fikrni (fikrlarni) shakllantirishga vakolatli bo'lgan sud ekspertlari umumiy fikrni (fikrlarni) shakllantiradi. Agar sud ekspertlari komissiyasi yakuniy fikrining yoki uning bir qismining asosi sifatida sud ekspertlaridan birining (alohida sud ekspertlarining) aniqlagan holatlari olingan bo'lsa, bu haqda xulosada ko'rsatilishi kerak.

Sud ekspertlari o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

Agar kompleks sud ekspertizasini o'tkazish davlat sud-ekspertiza muassasasiga topshirilgan bo'lsa, unda ushbu ekspertizani tashkil qilish uning rahbari zimmasiga yuklatiladi.

5. Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish

«Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 27¹-moddasiga asosan, **sud ekspertlari har ikki yilda** malaka oshirish kurslarida muayyan sud-ekspertlik faoliyati bo'yicha malakasini, shuningdek, huquqiy bilimlarini oshirib borishi shart. Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Malaka va huquqiy bilimlarini oshirishni o'tayotgan sud ekspertlariga o'qishning butun davri mobaynida asosiy ish joyi bo'yicha egallab turgan lavozimi va o'rtacha oylik ish haqi saqlab qolinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi 206-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish tartibi to'g'risidagi nizom davlat sud ekspertlarining malaka oshirish kurslarida muayyan sud-ekspertlik faoliyati bo'yicha malakasini va huquqiy bilimlarini oshirib borish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to'g'risidagi nizom nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining sud ekspertlarini qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibini belgilaydi.

6. Sud ekspertlarining huquq va majburiyatlari

«Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasiga ko'ra, sud eksperti quyidagi huquqlarga ega:

qonunchilikda belgilangan tartibda sud ekspertizasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish;

sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;

tergov harakatlari o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan hozir bo'lish va shu tergov harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga sud ekspertizasi predmetiga oid savollar berish;

sud muhokamasida sud ekspertizasi predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish va so'roq qilinayotgan shaxslarga sudning ruxsati bilan savollar berish; ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

o'z xulosasida nafaqat o'zining oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha, balki sud ekspertizasi predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham fikrlarini bayon etish;

uning xulosasi yoki ko'rsatuvlari protsess ishtirokchilari tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish;

agar u ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish;

agar uning huquq va erkinliklarini ishni yuritayotgan organning qarorlari, shaxsning harakatlari (harakatsizligi) buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Sud eksperti qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ushbu Qonunning 16-moddasiga asosan **sud eksperti**:

sud eksperti sifatida o'zini o'zi rad etishi uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, bu haqda sud ekspertizasini tayinlagan organga

(shaxsga) yoki davlat sud-ekspertiza muassasasining yoxud boshqa tashkilotning rahbariga darhol ma'lum qilishi;

o'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirishdan o'tkazishi, o'z oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona xulosa berishi;

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning chaqiruviga binoan surishtiruvda, dastlabki tergovda yoki sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun kelishi;

o'zi o'tkazgan sud ekspertizasi xususida ko'rsatuvlar berishi va o'zi bergan xulosani tushuntirish uchun qo'shimcha savollarga javob berishi;

sud ekspertizasini o'tkazishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarining saqlanishini ta'minlashi;

ish tergov qilinayotganda va sud muhokamasi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

Sud eksperti zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Sud eksperti:

sud ekspertizasini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan, ishning natijasidan o'zining manfaatdor emasligini shubha ostiga qo'yadigan masalalar yuzasidan protsess ishtirokchilari bilan shaxsiy aloqaga kirishishga;

sud ekspertizasini o'tkazish uchun mustaqil ravishda materiallar to'plashga;

sud ekspertizasi natijalarini sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) tashqari biron-bir shaxsga xabar qilishga haqli emas.

Davlat sud eksperti, shuningdek:

agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat sud-ekspertiza muassasasi rahbaridan tashqari bevosita boshqa biron-bir organdan (shaxsdan) sud ekspertizasini o'tkazish to'g'risida topshiriqlar qabul qilishga;

boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs sifatida sud ekspertizasini o'tkazishga haqli emas.

7. Mutaxassis fikri nima va uni berish tartibi qanday?

Mutaxassis fikri – jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis (sud eksperti)ning belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan fikridir.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar tomonidan qonunchilikka

ko'ra ruxsat etilgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq shartnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilib, mutaxassis fikri berilishi mumkin.

Ekspertiza tashkilotiga qaror (ajrim), so'rov, murojaatlar hamda ularning natijasi bo'yicha ekspertiza xulosasi yoki mutaxassis fikri yozma yoxud elektron shaklda taqdim etiladi.

Mutaxassis fikri uch qismdan: kirish, tadqiqot va fikr (yakunlovchi) qismlaridan iborat bo'ladi.

Mutaxassis fikrining **kirish qismida** tadqiqot o'tkazilgan sana va joy, tadqiqot o'tkazishning asosi, tadqiqot buyurtmachisi (yuridik yoki jismoniy shaxs) to'g'risidagi ma'lumotlar, sud eksperti (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va tadqiqot o'tkazish topshirilgan davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar haqidagi ma'lumotlar, sud eksperti oldiga hal etish uchun qo'yilgan savollar, unga taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va ish materiallari qayd etiladi.

Mutaxassis fikrining **tadqiqot qismida** sud eksperti oldiga qo'yilgan har bir masala bo'yicha tadqiqot o'tkazish jarayoni, qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tadqiqotlarning mazmuni va uning natijalari yoziladi, aniqlangan faktlar bo'yicha ilmiy tushuntirish beriladi.

Mutaxassis fikrining **fikr (yakunlovchi) qismida** tadqiqot natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar qayd etiladi.

Tadqiqot natijalarini tasvirlovchi ish materiallari mutaxassis fikrida aks ettiriladi yoki unga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 706-son qaroriga muvofiq, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar ro'yxati shakllantirilgan bo'lib, unga ko'ra 51 xil sud ekspertizasi turlari yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq mutaxassis fikri taqdim etiladi.

Mazkur hujjat jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini sud va tergov organlarida himoya qilishlarida yaqindan ko'mak ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

8. Sud ekspertizasi obyektlari va ularni taqdim etish tartibi

«Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga asosan, ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek sud ekspertizasi o'tkazilayotgan ish materiallari **tekshirish obyektlari** bo'lishi mumkin. Tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o'tkaziladi.

Tekshirishni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlar tekshirish uchun namunalardir.

Sud ekspertizasini o'tkazishda tekshirish obyektlari (tirik odamdan tashqari) tekshirishni o'tkazish uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada shikastlanishi yoki ishlatilishi mumkin. Bunda tekshirish obyektining qisman shikastlanishi yoki ishlatilishi uchun sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) yozma ruxsati olinishi zarur, tayinlangan sud ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlari obyektning shikastlanishini (buzilishini) yoki ishlatilishini taqozo etuvchi hollar bundan mustasno.

Tekshirish obyektlarining sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) yozma ruxsati bilan yoxud tayinlangan sud ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda shikastlanganligi yoki ishlatilganligi davlat sud-expertiza muassasasi, boshqa tashkilot yoki sud eksperti tomonidan mazkur obyektlarning mulkdoriga zararning o'rni qoplab berilishiga sabab bo'lmaydi.


Tekshirish obyektlari, agar ularning o'lchamlari va xossalari imkon bersa, o'ralgan va muhrlangan holda sud ekspertiga topshirilishi kerak.

Tekshirish obyektini sud ekspertining ish joyiga yetkazib berishning iloji bo'lmaganda, sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) unga mazkur obyektни moneliksiz kirib ko'rishni va uni tekshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Sud ekspertisasi tugallanganidan keyin tekshirish obyektlari, agar ular to'la ishlatilgan bo'lmasa, sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) qaytariladi.

II bob. SUD-EKSPERTIZA TURLARI TO‘GRISIDAGI UMUMIY MA’LUMOTLAR HAMDA ULAR HAL ETADIGAN SAVOLLAR

Sud-xatshunoslik ekspertizasi		
<p>Sud-xatshunoslik ekspertizasi – bu fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishi (<i>shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari</i>), ma’muriy sud ishlari va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ahamiyatiga ega bo‘lgan faktlarni (haqiqiy holatlarni) aniqlash maqsadida ekspertlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq qo‘lyozma hujjatlar yuzasidan maxsus bilimlar asosida o‘tkaziladigan tadqiqot turi.</p>		
Sud-xatshunoslik ekspertizasi quyidagi savollarni hal qiladi:		
Shubhali qo‘lyozmani tekshirilayotgan shaxslarning qaysi biri bajargan?	Qo‘lyozmalardan qaysi biri tekshirilayotgan shaxs tomonidan bajarilgan?	Shubhali qo‘lyozmani bir shaxs bajarganmi yoki turli shaxslarmi?
Shubhali qo‘lyozma biror-bir shaxsning yozuviga o‘xshatib bajarilganmi?	Qo‘lyozma ataylab o‘zgartirilgan yozuv bilan bajarilganmi?	Qo‘lyozmani erkak yoki ayol bajarganmi?
Qo‘lyozma jismoniy toliqqan, ruhiy hayajon, og‘ir kasallik yoki alkogol iste’mol qilgan holatda bajarilganmi?		Qo‘lyozma odatiy yoki g‘ayriodatiy holatda bajarilganmi, agar odatiy bo‘lmasa qanday holatda bajarilgan?
Tadqiqot qilinayotgan imzo B.A tomonidan bajarilganmi yoki boshqa shaxs tomonidan bajarilganmi?		Tadqiqot qilinayotgan qisqa qo‘lyozma B.A tomonidan bajarilganmi yoki boshqa shaxs tomonidan bajarilganmi?

Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasi		
<p>Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasi – sovuq qurol yordamida qotillik, tan jarohatlari yetkazish, bosqinchilik, bezorilik va boshqa turdagi jinoyatlar sodir etiladi. Shu sababli sovuq qurol tushunchasi bir qator jinoiy-huquqiy normalarni tuzishda foydalaniladi, sovuq qurolning o‘zi va uning ishlatilish izlari esa jinoyat ishlarini tergov qilish va ochish jarayonida kriminalistik ekspertizalarning obyektlari hisoblanadi.</p>		
Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:		
Mazkur predmet (narsa-buyum) sovuq qurol yoki sovuq qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan ashyo turkumiga kiradimi?	Tekshiriluvchi predmet sovuq qurollarning qanday turiga, ko‘rinishiga taalluqli?	Ishlatish uchun mazkur qurol soz va yaroqlimi? Agar nosoz yoki yaroqsiz bo‘lsa, uni tuzatish, qo‘llashga soz yoki yaroqli holatga keltirish mumkinmi?

Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi

Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi hujjatni tayyorlash yoki qalbakilashtirish usulini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Bunda, hujjat tahlil qilinib, qanday qog'oz ishlatilganligi, hujjatda qanday materiallar ishlatilganligi va hujjatni yaratish uchun qanday uskunalardan foydalanilganligi aniqlanadi.




Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:


Yozuvlar qanday usulda bajarilgan (bevosita yozuv qurilmasidami yoki nusxa ko'chiruvchi qurilma yoxud montaj usulidami)?	Yozuvni bajarishda ishlatilgan yozuv qurilmasining turi qanday?	Hujjatni tayyorlashda ishlatilgan iz hosil qiluvchi sirt (podlojka) qanday xususiyatlarga ega bo'lgan?
Tekshirilayotgan imzo dastlabki texnik tayyorgarlik ko'rib keyin bajarilganmi?	Tekshirilayotgan qo'lyozma matn qo'shib yozish, alohida chiziq-larni chizib qo'yish, bir shtrixlarni ikkinchisining ustidan chizish usullari bilan o'zgartirilganmi?	Tekshirilayotgan qo'lyozma matn tozalash, yemirish (yuvish) usullarida o'zgartirilganmi?
Qo'lyozma matn va hujjatning boshqa rekvizitlarining o'zaro kesishuvchi (shtrixlari) qanday ketma-ketlikda bajarilgan?	Hujjatdagi yozuvlar aniq bir yozuv qurilmasida bajarilganmi?	Hujjatdagi yozuvlar bir yoki turlicha yozuv qurilmalari yordamida bajarilganmi?
Tekshirishga yuborilgan g'ilof mazkur qurolning g'ilofimi?	Qurol qaysi maqsadlar (soha)da foydalanilishi uchun mo'ljallangan?	Tadqiqotga yuborilgan bo'lak-qism mazkur qurolning qismi emasmi?
Himoya elementiga ega bo'lgan hujjatlar (pasport, diplom, ID-karta va boshqalar) davlat ishlab chiqarish korxonasida tayyorlanganmi yoki yo'qmi?	Muhr ishlab chiqarish usuli qanday?	
Mazkur qurol qaysi usulda (sanoat, qo'lbola yoki hunarmandchilik) va qayerda (qaysi korxonada, zavod, davlat tomonidan) tayyorlangan?	Mazkur qurolni tayyorlashda qanday material qo'llanilgan? Tekshirishga yuborilgan material qo'llanilganmi, qurolni yasashda qanday qolip ishlatilgan, qanday asbob va qurilmalar yordamida bajarilgan?	Tekshiriluvchi qurol (qurollar)ni tayyorlashda mazkur asbob-uskuna, qurilmalar qo'llanilganmi?

Sud-fonografiya ekspertizasi

Sud-fonografiya ekspertizasi – tadqiqot qilinuvchi fonogramma yozib olingan asbob-uskunani, ya'ni magnitofon, diktofon, videokameralarga, raqamli diktofonlarga, raqamli videokameralarga, uyali telefonlarga, flesh-xotira kartalariga, flesh-xotira yig'uvchilariga, kompakt disklarga va boshqalarga yozilgan suhbatni (fonogrammani) tekshirish, suhbat mazmuni, ishtirok etgan shaxslar soni, jinsi, suhbatning sharoitlari va boshqalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.



Sud-fonografiya ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:		
Ekspertizaga taqdim etilgan stenogrammaning tadqiq qilinuvchi fonogramma mazmuniga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlash	Ekspertizaga taqdim etilgan fonogramma asli yoki nusxaligini aniqlash	Ekspertizaga taqdim etilgan videotasma va videofonogrammalarni tadqiqot qilish
Suhbat yozib olingan tashuvchida mexanik (faqat lenta-tortuvchi mexanizmi bo'lgan obyektlar bo'yicha) yoki elektroakustik montaj belgilari mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash	Ekspertizaga taqdim etilgan yozuv (fonogramma) sifati past va fonogrammani tashqi shovqinlardan tozalash zarur bo'lganda, suhbat stenogrammasini tuzish	Ekspertizaga taqdim etilgan fonogrammadagi ovoz va nutqning kimga tegishli ekanligini aniqlash (identifikatsiya qilish)
Ekspertizaga taqdim etilgan tadqiqot qilinishi lozim bo'lgan fonogramma aynan qaysi moslamada yozib olinganligini aniqlash		Ekspertizaga taqdim etilgan suhbatda nechta shaxs ishtirok etganligini, ularning jinsini, ruhiy holatini, suhbat qatnashchilarining nutqlari erkin holatdami yoki avvaldan tayyorlangan matnni o'qish ko'rinishidami, suhbat qayerda (xonada, ko'chada, avtomashina salonida va h.k.) yozib olinganligini aniqlash

Daktiloskopik ekspertiza		
<p>Daktiloskopik ekspertiza – hodisa sodir bo'lgan joyda va ashyoviy dalillarda barmoq izlarini aniqlash, topish va tekshirish orqali o'tkaziladigan ekspertiza turlaridan biri hisoblanadi. Barmoq izlari muhim qidiruv materiali hisoblanib, ushbu izlar jinoyat sodir etgan shaxslar va gumon qilinuvchilarning shaxsini aniqlash va tekshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.</p> <p>Papillary naqshlarning aniq ifodalangan alohidaligi, shaxslarni kriminalistik identifikatsiya qilishning (aynanligini aniqlash) asosini tashkil etadi.</p>		
Daktiloskopik ekspertizada quyidagi savollar hal etiladi:		
Taqdim etilgan buyumlarda barmoq izlari mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, ular shaxsni aynanligini aniqlash uchun yaroqlimi?	Barmoq izlari aniq bir shaxs (shaxslar) tomonidan qoldirilganmi?	Bir necha hodisa sodir bo'lgan joydan olingan barmoq izlari bir shaxs tomonidan qoldirilganmi?
Barmoq izlari bir shaxsga tegishlimi?	Iz hosil bo'lish mexanizmi qanday?	Izlar qaysi qo'l va qaysi barmoqdan qoldirilgan?
Izlar kaft sirtining qanday sohasidan qoldirilgan?	Iz bo'lgi qo'l barmog'idanmi yoki kaftidan qoldirilganmi?	Izlarda odam qo'lining qanday xususiyatlari aks etgan (chandiqlik, tirtiqlik, qadoqlik, teri kasalliklari, barmoqlarning yo'qligi va egilishi, uzuklarning mavjudligi va boshqalar)

Sud-trasologik ekspertizasi

Sud-trasologik ekspertizasi – iz hosil bo‘lishi jarayonining nazariy asoslari, ularni qoldirgan obyektlarning tashqi tuzilishi, izlarning hosil bo‘lish mexanizmlari, izlarni topish, hisobga olish va olib qo‘yish usullari va vositalari, shuningdek jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlash maqsadida izlar tadqiqotining umumiy va xususiy usullarini o‘z ichiga oladi.

Iz qoldiradigan obyektlarning turiga qarab, izlarning **to‘rtta asosiy guruhi ajratiladi**, ya’ni odam izlari, qurol, asbob va ishlab chiqarish mexanizmlarining izlari, transport vositalarining izlari hamda hayvonlar izlari.



Sud-trasologik ekspertizasi iz qoldiradigan obyektlarga qarab turli xil savollarga javob berishi mumkin. Transport vositalari izlarining trasologik ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

G‘ildirak izlarini qoldirgan transport vositasi qaysi turiga (xil, rusum) mansub?	Transport vositasi qaysi yo‘nalishda harakatlangan?	Qoldirilgan g‘ildirak izlari aniq bir avtomashinaga tegishlimi?
Shisha qoldiqlari va boshqa obyektlar chiroq (fara) shishasi, chiroq ostidagi yoritqichlar (fara osti chiroq), kuzov va boshqalar avval bir butunni tashkil qilganmi?	Muayyan transport vositasida aniq bir narsa (simyog‘och, daraxt, zina ushlagichi) bilan urilish natijasida hosil bo‘lgan bukilish (g‘ijimlanish), tiralish izlari bormi?	Transport vositasidan topilgan ip va mato bo‘laklari jabrlanuvchining kiyim-kechagiga tegishli bo‘lganmi yoki boshqa obyektlarga tegishlimi?
Voqea joyidan olingan gipsli oyoq izi tadqiqot uchun yaroqlimi hamda taqdim etilgan oyoq kiyimdan qoldirilganmi?	Qulf qanday usulda buzilgan?	Plombalar qanday usulda buzilgan?

Sud-ballistik ekspertizasi


Sud-ballistik ekspertizasi – qonunda belgilangan protsessual shaklda tegishli ekspert xulosasini rasmiylashtirish bilan, tergov harakatlari va sud muhokamasi jarayonida o‘qotar qurol, o‘q-dorilar va ularning ishlatish izlari haqidagi ilmiy asoslangan ma’lumotlarni olish maqsadida o‘tkaziladigan maxsus ekspertiza tadqiqotlaridir.




Sud-ballistik ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Taqdim etilgan buyum o‘qotar qurollarga va o‘q-dorilar turkumiga tegishlimi?	Taqdim etilgan qurol qaysi tizim, model, namunaga taalluqli?	Taqdim etilgan qurolning (patron) kalibri qanday?
Tekshirilayotgan patronlar qurolning qaysi turiga, tizimiga taalluqli?	Berilgan o‘q va gilza qaysi model va namunaga taalluqli?	Berilgan o‘q qaysi usulda tayyorlangan?

Tadqiqotga taqdim etilgan o'qotar qurol qanday usul bilan tayyorlangan?	Berilgan patronlar qaysi usul bilan tayyorlangan?	Tadqiqotga yuborilgan o'qotar qurol o'zgartirilganmi, uning qaysi qismlari almashtirilgan?
Tadqiqotga taqdim etilgan o'qotar qurol otish uchun yaroqlimi?	Tadqiqotga taqdim etilgan quroldan muayyan sharoitlarda o'q otishi mumkinmi (<i>masalan, avtomatik quroldan donalab o'q otish mumkinmi</i>)?	Berilgan quroldan qo'yib yuboruvchi ilmoqni bosmasdan o'q otish mumkinmi?

Sud-portret ekspertizasi		
<p>Sud-portret ekspertizasi – tergov va sud organlari topshirig'iga ko'ra, odam tashqi qiyofasining moddiy aks etgan tashqi qiyofa belgilarini tahlil qilish, taqqoslash va baholash natijalariga asoslanib o'tkaziladigan kriminalistik ekspertiza tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. Bunda fotosuratlar, rasmlar va jinoyat ishidagi odam tashqi qiyofasining turli ta'riflari mavjud bo'lgan ma'lumotlar mazkur turdagi ekspertizaning tadqiqot obyektidir.</p>		
Sud-portret ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:		
Tadqiq etilayotgan fotosuratlarda aniq bir shaxs (F.I.Sh. ko'rsatiladi) tasvirlanganmi?	Guruhiy fotosuratda tasvirlangan shaxslar orasida fotosurati taqdim etilgan shaxs mavjudmi?	Tekshirilayotgan bosh suyagi tadqiqotga taqdim etilgan fotosuratdagi shaxsga tegishlimi?
Taqdim etilgan fotosurat montaj usullaridan foydalanib tayyorlanganmi?	Taqdim etilgan fotosuratda tasvirlangan shaxsning tashqi qiyofa belgilarining aks etishiga fotosuratga olish sharoitlari ta'sir ko'rsatganmi?	O'zaro taqqoslanayotgan va vaqt bo'yicha katta oraliqda tayyorlangan fotosuratlarda tasvirlangan shaxslarning tashqi qiyofa belgilari orasidagi farqlar odamning yosh bo'yicha o'zgarishlari hisoblanadimi?

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilar ekspertizasi		
<p>Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilar ekspertizasi – maxsus bilimlar asosida ushbu moddalarning muayyan massalarini o'zaro solishtirish orqali umumiy manbasini belgilash, tekshirilayotgan moddalarni ma'lum bir sinf, turga taalluqliligini, ularning o'sgan joyi, vaqti va ishlab chiqarish usulini aniqlash bilan bog'liq faktlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.</p>		
Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilar ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:		
Voqea joyidan olingan, topilgan modda(lar) giyohvandlik vositasi (psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi modda yoki prekursor)mi, agar giyohvandlik vositasi (psixotrop va kuchli ta'sir	Taqdim etilgan obyektlar (shpris, igna va shisha idishlar)da giyohvandlik vositasi (psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi modda yoki	Taqdim etilgan o'simlikning tarkibida giyohvandlik vositalari bormi?

qiluvchi modda yoki prekursor) bo'lsa, qaysi turiga mansub?	prekursor)ning qoldig'i mavjudmi?	
Gumon qilinayotgan shaxsdan va uning uyidan musodara qilingan namunalar umumiy bir tur yoki turkumga mansubmi, agar shunday bo'lsa, qaysi tur yoki turkumga taalluqli?	Musodara qilingan moddalar umumiy manbaga (umumiy massaga) mansubmi?	Musodara qilingan moddalarga qo'llanilgan xomashyo va ularning o'sgan joyi, tayyorlanishi, ishlab chiqarilish usuli, saqlash sharoiti bo'yicha umumiy manbaga mansubmi?

Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasi

Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasi – jinoiy ish tafsilotlarini ekspertlarning fizika, metalshunoslik, kriminalistika sohasidagi maxsus bilimlari asosida aniqlash yuzasidan o'tkaziladigan ekspertiza tadqiqoti hisoblanadi. Mazkur ekspertiza natijasida olinadigan ma'lumotlar metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizaning predmetini tashkil etadi.




Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Ekspertizaga taqdim etilgan ashyoviy dalillarda qanday metall zarrachasi bor?	Gumon qilinayotgan shaxsdan olingan, ekspertizaga taqdim etilgan buyumlar – bosqon, tarozi, bolg'achalarda oltin (yoki jinoiy ish tafsilotiga ko'ra boshqa metall) bormi?	Jabrlanuvchining yarasidan olingan zarracha metaldanmi, agar shunday bo'lsa, uning tarkibida qanday metall bor?
Gumon qilinayotgan shaxsning kiyimida metall (<i>masalan, po'lat</i>) qirindilari bormi?	Ekspertizaga taqdim etilgan metall qanday buyumlar tayyorlashga mo'ljallangan?	Taqdim etilgan avtomobil qanotining botgan yuzasida mis va xrom bormi?
Ayblanuvchidan olingan pichoq qanday po'lat navidan tayyorlangan?	Ekspertizaga taqdim etilgan buyumlar – tish qoplamasi, bilaguzuk, tumor qanday qotishmalardan tayyorlangan?	

Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi

Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi – turli toifadagi jinoiy ishlarni tergov qilish va sudga ko'rishda tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlarning (to'qimachilik materiallari) tadqiqoti voqea vaziyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, nomusga tegish, qotillik, odam o'ldirish va yo'l-transport hodisalari bo'yicha jabrlanuvchi, ayblanuvchilarning kiyim-kechaklari va har xil buyumlar sathida qolgan mayda tolalarni tekshirish alohida ahamiyatga ega.



Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

ZIL-130 avtomashinasining kardanida tolali materiallar bormi, agar bo'lsa, ular jabrlanuvchi shimining tolalari bilan turdoshmi?	Voqea joyidan topilgan tugma gumon qilinuvchidan olingan ip bilan tikilmaganmi?	Taqdim etilgan kiyim qayta bo'yalganmi? Agar bo'yalgan bo'lsa, uning dastlabki rangi qanday bo'lgan?
Voqea joyidan olingan yong'in qoldiqlarida to'qimachilik materiali va buyumlarning yoki ularning qismlaridan tolalar bormi? Agar bo'lsa, ularning turi va ishlatilish sohasi aniqlansin.		

Lok-bo'yoq materiallari va qoplamalarining ekspertizasi

Lok-bo'yoq materiallari va qoplamalarining ekspertizasi – materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi doirasida o'tkazilib, mazkur ekspertiza turi yo'l-transport hodisalari oqibatida odamni bosib yoki urib ketish, tunash, o'g'irilik va transport vositalarining bir-biri bilan o'zaro to'qnashishi kabi ko'pgina jinoyatlarni tekshirishda alohida ahamiyatga ega.



Lok-bo'yoq materiallari va qoplamalarining ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Obyektda (buyum) lok-bo'yoq materiallarining yoki qoplamalarining zarralari (umuman yoki faqat ma'lum bir turi) bormi?	Topilgan modda lok-bo'yoq materiallari yoki qoplamalariga (umuman yoki faqat ma'lum bir turiga) taalluqlimi?	Tekshirishga taqdim qilingan lok-bo'yoq materiallari yoki qoplamalari namunalari umumiy tur yoki guruhga mansubmi?
Muayyan predmetlar o'zaro ta'sirlashishda (kontaktda) bo'lganmi?	Muayyan obyektga lok-bo'yoq qoplamasi qanday usulda surilgan (<i>zavod sharoitidami yoki qo'ldami</i>)?	Buyum yuzasi qayta bo'yalganmi?

Neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiali ekspertizasi

Neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiali ekspertizasi – mazkur ekspertizani o'tkazish zarurati o'zini yoqib yuborish, qasddan o't qo'yish, ehtiyotsizlik natijasida sodir qilinadigan yong'in, yo'l-transport hodisalari, jasadni yoqib yuborish, turli jinoyat izlarini yo'qotish maqsadida obyektlarga o't qo'yish, neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallarini o'g'irlash kabi jinoiy ishlarda ahamiyati katta hisoblanadi.




Neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiali ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Voqea joyidan topilgan idishdagi (shisha, banka) suyuqlik neft mahsulotimi (<i>benzin, kerosin, dizel yonilg'isi</i>)?	Voqea joyidan topilgan idishdagi (<i>shisha, banka</i>) va gumon qilinayotgan shaxsdan olingan suyuqliklar bir turga mansubmi?	Ekspertizaga taqdim etilgan obyektlarda (<i>kiyim, tuproq namunalari, taxta bo'laklarida va h.k.</i>) neft mahsulotlarining yoki yonilg'i-moylash materiallarining qoldiqlari (<i>izlari</i>) bormi?
Ekspertizaga taqdim etilgan obyektlardagi modda qoldiqlari neft mahsulotlarining (<i>yonilg'i-</i>	Ekspertizaga taqdim etilgan kiyim yuzasida yonilg'i-moylash materiallarining izlari bormi, agar bo'lsa, ular gumon	Kiyimdagi dog'lar ma'lum bir avtomobildan qolgan yog'lash uchun ishlatiladigan materialmi?

<i>moylash materiallarining</i>) qaysi turiga mansub?	qilinayotgan shaxsning uyidan olingan yonilg'i-moylash materiali bilan bir xilmi?	
--	---	--

Shisha va undan tayyorlangan buyumlarning sud-kimyoviy ekspertizasi

Shisha va undan tayyorlangan buyumlarning sud-kimyoviy ekspertizasi – trasologik va fizik-kimyo tekshirish usullarini o'z ichiga olgan kompleks ekspertiza hisoblanadi. Bu kabi ekspertizani o'tkazish ikkita mutaxassis: trasolog-ekspert va fizikaviy-kimyoviy tadqiqot usullarini olib boradigan ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi.



Shisha va undan tayyorlangan buyumlarning sud-kimyoviy ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Ekspertizaga taqdim qilingan ashyoviy dalilda shisha (oyna) parchalari (mayda zarrachalari) bormi?	Voqea joyidan topilgan shisha (oyna) siniqlarining turi va xili qanday?	Ekspertizaga taqdim etilgan shisha (oyna), buyum siniqlari qanday sabablarga ko'ra (<i>mexanik, termik va h.k.</i>) darz ketgan yoki singan?
Taqdim etilgan shisha (oyna) o'q otish yoki zarba natijasida singanmi?	Xonadon derzasining singan oynasiga zarba qaysi tomondan berilgan?	Deraza oynasi qanday asbob bilan kesib olingan?

Maxsus kukunlar va maxsus markerlar (qalamlar)ning sud-kimyoviy ekspertizasi

Maxsus kukunlar va maxsus markerlar (qalamlar)ning sud-kimyoviy ekspertizasi – korrupsiya, poraxo'rlik, firibgarlik va tovlamachilik kabi jinoyatlarni ochish va tergov qilish yuzasidan muhim ahamiyatga ega. Ko'pincha pora olish va berish hech qanday guvohlarsiz sodir bo'lganligi sababli tergov idoralari bu jinoyatlarni ochishda hozirgi zamon kriminalistika vositalaridan foydalanadi. Ular qatorida maxsus kukunlar va markerlar (qalamlar) ekspertizasi keng qo'llaniladi.



Maxsus kukunlar va maxsus markerlar (qalamlar)ning sud-kimyoviy ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Ekspertizaga taqdim etilgan ashyoviy dalillarda (pul kupyuralarida, kiyimlar sathida, qo'llardan artib olingan surtmalarda va h.k.) maxsus kukun izlari mavjudmi?	Ekspertizaga taqdim etilgan pullarda maxsus kukun va maxsus qalam izlari mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, ular taqqoslash uchun yuborilgan maxsus kukun va maxsus qalam namunalari bilan turdoshmi?	Ekspertizaga taqdim etilgan pullardagi «Pora» yozuvi namunasi taqdim qilingan maxsus qalamning yozuvi bilan bir xilmi?
---	--	--

Tarkibida spirti bo'lgan suyuqliklar sud-kimyoviy ekspertizasi

Tarkibida spirti bo'lgan suyuqliklar sud kimyoviy ekspertizasi – ushbu ekspertiza tarkibida spirti bor deb taxmin qilingan suyuqliklarni tekshirish, spirti bor-yo'qligini, uning miqdorini, quvvatini va qo'shimcha moddalarning mavjud yoki mavjud emasligini, ularning miqdoriy tarkibini, davlat standarti talablariga javob berish yoki javob bermasligini, spirtli ichimliklarni inson iste'mol qilganda zaharlanishi yoki noxush oqibatlariga olib kelishi holatlarida diagnostik, klassifikatsion va identifikatsion vazifalarni hal etish maqsadida o'tkaziladi.




Tarkibida spirti bo'lgan suyuqliklar sud-kimyoviy ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Tekshirish uchun taqdim etilgan suyuqlikning tabiati va tarkibi qanday?	Tekshirish uchun taqdim etilgan suyuqliklar aroqmi, agar aroq bo'lsa, ular fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha davlat standarti talablari (<i>quyilish miqdori, quvvati, mikroqo'shimchalari</i>)ga javob beradimi?	Voqea joyidan olingan noma'lum ichimlik tarkibida odam organizmi uchun zararli, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjudmi?
Tekshirish uchun taqdim etilgan suyuqlik qo'lbola yoki zavod sharoitida tayyorlanganmi?	Tekshirish uchun yuborilgan spirt qanday xomashyodan tayyorlangan, uning turi aniqlansin.	Taqqoslash uchun korxonadan va savdo do'konidan olingan aroq mahsulotlari etiketlarida ko'rsatilgan yozuvlarga mos keladimi?

Polimer materiallar (plastmassalar, rezina, yelimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar sud-kimyoviy ekspertizasi

Polimer materiallar (plastmassalar, rezina, yelimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar sud-kimyoviy ekspertizasi – odam o'ldirish, zo'rlash, o'g'irilik, yo'l-transport hodisalari kabi jinoiy ishlar bo'yicha polimer materiallar (plastmassalar, rezina, yelimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar eng ko'p tarqalgan ashyoviy dalillar hisoblanadi.



Transport vositalarining detallari, elektrotexnika, kabel sanoati (elektr simlarining izolyatsiya qatlami, materiali, izolyatsiya tasmalari) mahsulotlari, avtomobil va oyoq kiyimi (rezina, sun'iy charm, plastmassa), attorlik (tugmalar, taqinchoqlar) sanoatining mahsulotlari, polimer plyonkalari, sintetik tolalar va yelimlar (kleylar) ushbu ekspertizaning obyektlari hisoblanadi.


Polimer materiallar (plastmassalar, rezina, yelimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar sud-kimyoviy ekspertizasida quyidagi savollar hal etiladi:

Taqdim etilgan voqea sodir bo'lgan joydan topilgan hamda jabrlanuvchining kiyimidagi tugmalar umumiy bir turni va guruhni tashkil qiladimi?	Taqdim etilgan voqea sodir bo'lgan joydan olingan plastmassali shisha bo'lakchalari va avtomashinaning chiroqchasidan olingan shunday shisha bo'lakchalari bir tur va guruhni tashkil qiladimi, agar bir xil bo'lsa, bir partiya xomashyodan tayyorlanganmi?	Polimer materialning kimyoviy tarkibi va uning qayerda qo'llanilishi (ishlatilishi) aniqlansin.
---	--	---

A.ning uyidan va zavod sexidan olingan linoleum (<i>polimer qoplama</i>) bir tur va guruhga mansubmi?	Taqqoslanayotgan elektr simlari (<i>kabellar, shnurlar, elektr tokini o'tkazmaydigan izolyatsiyali tasmalar, materiallar</i>) umumiy sirt bo'linish chizig'iga egami, shunday bo'lsa, ular bir-birining davomchisimi?	Solishtirish uchun taqdim etilgan polimer materiallarining namunalari (<i>plastmassa, rezina qoplamalar</i>) bir tur va guruhga mansubmi?
---	---	---

Sud-portlash-texnik ekspertizasi

Sud-portlash-texnik ekspertizasi – mustaqil ekspertiza turi hisoblanib, uning vazifasi tadqiqot qilinadigan modda yoki qurilmaning portlovchi material (PM) yoki portlash qurilmalariga (PQ), o'q dorilariga, shuningdek pirotexnika buyumlariga taalluqliligini, ularni ta'sir etish qobiliyati va xavflilik darajasini aniqlashdan, portlatish qurilmasini yasagan shaxsning maxsus bilim va kasbiy mahoratga ega ekanligini belgilashdan, portlash sodir etilgan hollarda portlash qurilmalarining (PQ) ilk holatini tiklash, buzilganlik va dastlabki holatini o'rganish, portlashni keltirib chiqargan vaziyatni tahlil qilishdan, qo'llanilgan portlovchi modda, material yoki portlatish qurilmasining tuzilishini portlash qoldiqlari yordamida aniqlashdan iborat.



Sud-portlash-texnik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Ushbu manzilda (manzil nomlanishi va to'liq yozilishi kerak) portlash sodir bo'lganmi? Agar portlash sodir bo'lgan bo'lsa, portlatish qurilmasi portlovchi modda, gaz-havo aralashmasimi yoki gaz ballon portlaganmi?	Portlash sodir etilgan hollarda, hodisa sodir etilgan joyidagi buzilish xarakteriga qarab portlash tabiati va portlashni keltirib chiqargan sabablari aniqlansin.	Taqdim etilgan modda yoki qurilma portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, pirotexnika buyumlariga, shuningdek, zarar yetkazuvchi o'q-dorilar turkumiga taalluqliligini, ularning ta'sir etish qobiliyati, xavflilik darajasi va portlatish uchun yaroqliligi aniqlansin.
Hodisa joyidan olingan ashyoviy dalillarda portlatish qurilmasi qismlari va portlash mahsulotlari izi mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, portlash mahsulotlari qanday portlovchi moddalarning portlashi oqibatida hosil bo'lgan?	Portlash qoldiqlarini o'rganish orqali qo'llanilgan portlovchi modda turi hamda portlatish qurilmasining tuzilishi aniqlansin.	Portlatish qurilmasi hamda uning asosiy elementlarining konstruksiyasi va tayyorlanish usullari (qo'lbola, sanoatda) aniqlansin.
Portlash sodir etilgan hollarda, qurilma qanday ishga tushiriladi? Ishlash prinsipi qanday? Qurilma zaryadi sifatida qanday portlovchi moddadan foydalanilgan?	Portlatish qurilmasini yoki portlovchi moddasini yasagan shaxsning maxsus bilim va malaka, mahorat darajasi aniqlansin.	

Sud-botanik ekspertizasi

Sud-botanik ekspertizasi – botanik obyektlarning zarralarini, izlarini topish, ularning tabiatini aniqlash, obyektning qaysi tur, turkumga kirishini aniqlash, bir necha obyektlarning ma'lum bir tur va turkumga taalluqliligini aniqlash maqsadida solishtirib tekshirish, obyektning vaqtinchalik xususiyatlari (yoshi, rivojlanish bosqichi)ni aniqlash, obyektning o'zgarish sabablari (ma'lum bir sharoitda saqlash, mexanik ta'siri)ni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.



Sud-botanik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Taqdim etilgan buyumlarda (pichoq, arra, bolta) yog'och va daraxt po'stlog'i zarralari bormi?	Avtomashinadan topilgan yog'och zarrachalari yo'l chetida o'sayotgan daraxt turiga mansubmi?	Taqdim etilgan pichoqda, arrada, lomda, boltada topilgan yog'och zarralari hodisa sodir bo'lgan joydan olingan yog'och zarralari bilan daraxt yog'ochining bir turi (turkumi)ga mansubmi?
Hodisa joyidan olingan pichoqning yog'och dastasi qanday daraxtdan yasalgan?	Topilgan barg zarralari voqea joyidan olingan butun o'simlik namunasi bilan bir xil turga (turkumga) mansubmi?	Topilgan bir necha xil barg mayda zarralari bir turga (turkumga) mansubmi?
Gumon qilinayotgan shaxs kiyimidagi dog'lar qanday hosil (paydo) bo'lgan? Agar o'simlikdan paydo bo'lgan bo'lsa, voqea joyidan olingan o'simlik turiga taalluqli bo'lgan o'simlikdan paydo bo'lganmi?	Gumon qilinayotgan shaxsning kiyimidan olingan barg zarralari va voqea joyidan olingan o'simlik bir tur (turkum)ga taalluqlimi?	Gumon qilinayotgan shaxsdan musodara qilingan moddaning tarkibidagi barg zarralari hamda jabrlanuvchi oshqozonidan olingan barg zarralari o'simliklarning bir xil turiga (turkumiga) mansubmi?

Sud-zoologik ekspertizasi

Sud-zoologik ekspertizasi – qotillik, transport bosib ketishi, o'g'irilik, jonivorlarni noqonuniy yo'l bilan o'ldirish, uy jonivorlarini o'g'irlash, teri, yung mahsulotlarini o'g'irlash va shu kabi jinoiy ishlar ko'rilayotganda hayvonlar yungi ekspertiza obyektlari tariqasida uchrab turadi. Obyektlarning turiga qarab sud-zoologik ekspertizasi o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linadi: sud-ornitologik (qushlarga tegishli obyektlarni tekshirish), sud-ixtiologik (baliqlarga tegishli obyektlarni tekshirish), sud-zoologik (jonivor va hasharotlarga tegishli obyektlarni tekshirish).




Sud-zoologik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:


Taqdim qilingan kiyim (avtomashinaning yuk xonasi, sumka yoki boshqa joy)da hayvonlarning jun (mo'ylov, yol) tolalari bormi?	Tekshirilgan yunglar (jun) jonivorlarning bir turi (<i>urug'dosh, oilasi</i>)ga mansubmi?	Agar bu yung jonivorniki bo'lsa, u holda jonivorlarning qaysi turi (<i>urug'dosh, oilasi</i>)ga mansub?
Taqdim qilingan mo'yna bo'lagining rangi tabiiymi yoki bo'yalganmi?	Topilgan yung (jun, mo'ylov, yol) qaysi jonivorga tegishli?	Topilgan obyekt qanday hayvon yungi (mo'ylovi, juni, yoli)?

Yung ma'lum bir jonivornikimi (ot, qo'y, eshak) yoki yungli buyumga (ondatradan quloqchin, qo'y terisidan shuba) taalluqlimi?	Voqea joyidan olingan yung namunalari va gumon qilinuvchining uyidan topilgan yung bir turdoshmi (bir guruhga taalluqlimi)?
---	---

Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi


<p>Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi – qotillik, tan jarohati yetkazish, talonchilik, yo'l-transport hodisalari singari jinoiy ishlarni tergov qilishda poyabzal, kiyim, transport vositalari qismlari va h.k. kabi har xil buyumlardagi tuproq qoldiqlari ko'p uchraydigan ashyoviy dalillar jumlasiga kiradi.</p> <p>Tuproq qismlarining kriminalistik tadqiqoti natijalari asosida kishining yoki buyumning, atrof-muhitning muayyan qismida bo'lganligi faktini aniqlash imkoniyati ushbu ekspertizaning daliliy mohiyatini tashkil qiladi.</p>		
Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:		
Taqdim etilgan obyektlarda birorta begona qatlamlar bormi, agar bo'lsa, ular tuproq emasmi?	Tuproq qoldiqlari obyektning qaysi qismida joylashgan?	Taqdim etilgan obyektlardagi tuproq moddalari va voqea sodir bo'lgan yerdan olingan tuproq namunalari umumiy turkum va guruhga taalluqlimi?
Taqdim etilgan obyektlardagi tuproq joyning muayyan qismiga (yerning ma'lum qismi, uning o'lchamlari va chegarasi belgilab beriladi) taalluqlimi?	Obyekt muayyan joy yoki boshqa predmet bilan o'zaro aloqada (kontaktida) bo'lganligi	Muayyan joy tuprog'iga xos bo'lmagan qattiq jismlarni topish

Sud-yong'in-texnikaviy ekspertizasi

<p>Sud-yong'in-texnikaviy ekspertizasi muhandislik-texnikaviy ekspertizalar orasida kriminalistik ekspertizalarga yaqin tur hisoblanadi. Mazkur ekspertiza tadqiqotlari yong'in joyida yong'inning izlari, olovning ta'siri izlarini o'rganish orqali yong'inning boshlangan joyini, kelib chiqish sababi mexanizmini aniqlash yuzasidan o'tkaziladi.</p>		
Sud-yong'in-texnikaviy ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:		
Taqdim etilgan voqea joyidan olingan elektr simlarining ulanishida nosozliklar mavjudmi?	Taqdim etilgan voqea joyidan olingan elektr simlarida qisqa tutashuv alomatlari mavjudmi?	Tutab yongan tamaki mahsuloti cho'g'i qoldig'ining issiqlik quvvati hodisa joyidagi yonuvchi materiallarni yondirishga yetarlimi yoki yetarli emasmi?
Paxta tolasi yong'in ro'y berishi oldida bo'lgan shart-sharoitlarda o'zidan-o'zi (yong'in manbaisiz) yonib ketishi mumkinmi?	Yong'in neft mahsulotlaridan chiqqanmi?	Elektr simlarida qisqa tutashuv alomatlari bo'lsa, yong'inning kelib chiqishiga sabab bo'lganmi?
Ushbu yong'inning sababchisi bir dona gugurt cho'pi alangasi bo'lishi mumkinmi?	Maxsus (masalan, yong'in xavfsizligi, elektr uskunalarni o'rnatish) qoidalar talablari kim tomonidan buzilgan (bajarilmagan)?	Korxonada yong'in xavfsizligi uchun javobgarning harakatlarida jinoyat alomatlari mavjudmi?

Sud-elektrotexnikaviy ekspertizasi

Sud-elektrotexnikaviy ekspertizasi – elektr uskunalar, jihozlar, moslamalar, elektr o‘tkazgichlardagi turli avariya holatlari (nosozliklar)ni aniqlash, ularning sodir bo‘lishi sabablarini o‘rganish maqsadida o‘tkaziladi. Ushbu tur ekspertiza elektr uskuna va asboblarning ishdan chiqish mexanizmini tiklash, ya’ni uning texnik nosozligi, ishlab chiqarishda yo‘l qo‘yilgan kamchilik, elektr uskuna va moslamalarning sifatsizligi, ishlatilgan detallarning nuqsonini aniqlash yoki ekspluatatsiya noto‘g‘ri qilinganligini o‘rganish kabi masalalarni yechish maqsadida tayinlanadi.




Sud-elektrotexnikaviy ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:

Elektr uskuna, jihoz, moslamalar (<i>muzlatkich, konditsioner, elektr isitish moslamasi</i>)da nosozlik mavjudmi, agar bo‘lsa, qanday nosozlik?	Elektr jihozidagi nosozlik, uning noto‘g‘ri ekspluatatsiya qilinishi natijasida yoki boshqa sabablarga ko‘ra vujudga kelganmi?	Taqdim etilgan elektr simlarining ulanishi, yuqori o‘tuvchi qarshilikni keltirib chiqarishi mumkinmi?
Taqdim etilgan elektr simlarida qisqa tutashuv alomatlar mavjudmi, agar bo‘lsa, u yong‘indan oldin yoki yong‘in vaqtida sodir bo‘lganmi?	Elektr simining qarshiligi ishlatilayotgan elektr toki quvvatiga mos keladimi?	Elektr himoya qurilmasi elektr toki quvvatiga mos keladimi?
Elektr himoyasi qurilmasi elektr jihozning avariya holatida ishlaganmi, agar ishlamagan bo‘lsa, buning sababi nimada?	Elektr himoyasi qurilmasining saqlagichining (predoxranitel) buzilishi sabablari nimada?	Asbob-uskunalar, jihozlar, mexanizmlar, apparatlarning texnik holati qanday?

Sud-tovarshunoslik ekspertizasi

Sud-tovarshunoslik ekspertizasi – mahsulotlarning tovar (iste‘mol) xususiyatlarining muayyan sifatini aniqlash maqsadida maxsus bilimlar asosida o‘tkaziladi. Sanoat tovarlari (mebel, to‘qimachilik, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari), iste‘mol tovarlari, sanoat, attorlik (galantereya) mahsulotlari, maishiy xo‘jalik mollari (yoritish asboblari va moslamalari), maishiy xo‘jalik tovarlari, orgtexnika va ularning jamlanmalari (komplektlari), ishlab chiqarish liniyalarining alohida qismlari ushbu ekspertizaning obyektlari sirasiga kiradi.




Sud-tovarshunoslik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:

Tovarning nomi va uning guruhi qanday?	Taqdim etilgan sanoat mahsuloti qanday mahsulotdan tayyorlangan?	Tadqiqot uchun taqdim etilgan mahsulot nuqsoni foydalanish natijasida paydo bo‘lganmi yoki uning sifatsizligidanmi?
Taqdim etilgan mahsulotning sifati namuna sifatiga to‘g‘ri keladimi, agar to‘g‘ri kelmasa, ularning farqi nimada?	Tadqiqot uchun taqdim etilgan tovarning ko‘rilayotgan davrdagi bahosi qanday?	Zararlangandan yoki buzilgandan keyingi keltirilgan moddiy zararining hajmi qancha?
Qadoqlash qoidasi buzilganmi?	Tekshirilayotgan obyektning hozirgi (ya’ni ekspertiza o‘tkazish) vaqtidagi o‘rtacha bozor bahosi qanday?	Tekshirilayotgan obyektning o‘tgan davrning muayyan vaqtiga o‘rtacha bozor bahosi qanday bo‘lgan?

Sud-qurilish-texnik ekspertizasi

Sud-qurilish-texnik ekspertizasi – sudlar tomonidan shaxsiy, umumiy mulkda bo‘lgan uy-joylarni bo‘lib berish yoki shaxsiy ulushini ajratib berish, oldi-sotdi shartnomalarni (uy-joylar bo‘yicha) bekor qilish, vasiyatnomalarni (uy-joy bo‘yicha) bekor qilish, nikohni bekor qilish va mulkini bo‘lib berish, xonadonga suv toshirish natijasida yetkazilgan zararni qoplash, bajarilmagan ishlarni yoki sifatsiz bajarilgan ishlarni undirish singari fuqarolik ishlari bilan bog‘liq da‘volar yuzasidan o‘tkaziladi.



Sud-qurilish-texnik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:

Uyning (dala hovlining, garajning) baholanishi to‘g‘rimi?	Da‘vo qilinayotgan uy-joyni, texnik jihatdan qurilish normalari va qoidalarini buzmasdan bo‘lish mumkinmi?	Agar da‘vo qilinayotgan uy-joyni ajratib berilgan ulushlarga mos qilib bo‘lib bo‘lmasa, texnik jihatdan da‘vo qilinayotgan tomonga ajratib berilgan ulushlarga yaqinroq qilib bo‘lib bo‘ladimi?
Texnik jihatdan bo‘linishi mumkin bo‘lgan uy-joyning da‘vo qilinayotgan ulushlarining bahosi qanday?	Uy-joyni texnik jihatdan bo‘lish mumkin bo‘lgan variantini amalga oshirish uchun qanday qayta jihozlash ishlari (<i>xonalarni, xonadonlarni ajratish-izolatsiya qilish</i>)ni olib borish kerak?	Ruxsatsiz (<i>o‘z ixtiyori bilan</i>) qurilgan qurilmalardan foydalanishning texnik tartibi aniqlansin.

Sud-yer ekspertizasi

Sud-yer ekspertizasi – muhandislik-texnikaviy ekspertizasi turlaridan biri bo‘lib, yer maydonlari chegaralarini va ulardan foydalanish tartibi bilan bog‘liq faktlarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Yer maydonlari va yer maydonida joylashgan bino, inshootlar, muhandislik tarmoqlari, yer maydonlari rejasi, yer ajratish rejalari, yer osti va yer usti kommunikatsiyalarining rejalari sud-yer ekspertizasi tadqiqot obyektlari hisoblanadi.



Sud-yer ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:

Yer maydonlarini tomonlarning 3/5 va 2/5 ulushlari (<i>yoki boshqa ulushlarini ko‘rsatish lozim</i>) bo‘yicha shartli me‘yor va qoidalar asosida bo‘lish mumkinmi?	Foydalanish tartibi belgilangan uy-joy yer maydonlarini tomonlarning 2/3 va 1/3 ulushlari bo‘yicha shartli me‘yor va qoidalar asosida bo‘linishini aniqlash.	Yer maydonlarini yashash uylari va yordamchi inshootlarni sud-qurilish eksperti xulosasida ko‘rsatilgan bo‘lish variantlari va shartli me‘yor va qoidalar asosida bo‘linishi aniqlash
Yer maydonlarini servitut belgilanishi bilan shartli me‘yor va qoidalar asosida bo‘lish mumkinmi?	Yer maydonlarini bo‘lgan holda ulardan alohida kirib-chiqish yo‘laklarini belgilash.	Umumiy foydalanishda bo‘lgan yer maydonlarini shartli me‘yor va qoidalar asosida chegaralanishini aniqlash.

Yo‘l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasi

Yo‘l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasi – hodisa jarayoni yoki uning alohida tomonlarini tadqiq qilish maqsadida o‘tkaziladi. Transport vositasining texnikaviy holatini sodir bo‘lgan joydagi yo‘l vaziyatini va hodisa ishtirokchilarining harakatini, shuningdek, hodisa yuz berishiga sababchi bo‘lgan holatlarni belgilab beruvchi, yo‘l-transport hodisasining mexanizmi (jarayoni) bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqiy holatlari va ma‘lumotlari yo‘l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasining predmeti hisoblanadi.



Yo‘l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:

Transport vositalarining harakat tezliklarini aniqlash	Transport vositasini to‘xtatish va tormozlanish masofalarini aniqlash	Yo‘l-transport hodisasining turli vaqtlarda transport vositalarining o‘zaro yaqinlashib kelish holatlarini aniqlash
Transport vositasining ma‘lum masofani bosib o‘tish uchun sarflaydigan vaqtini aniqlash	Haydovchining yo‘l-transport hodisasini bartaraf etish uchun oxirgi imkoniyati qolgan vaqtda transport vositasi bilan hodisaning ikkinchi ishtirokchisining o‘zaro (<i>masofa bilan ifodalanuvchi</i>) holatlari qanday bo‘lganligini aniqlash	Yo‘l-transport hodisasini qayd etgan video yozuvlardan uning ishtirokchilari joylashuvi va harakatining parametrlarini aniqlash
Ekspert maxsus bilimlariga tayangan holda texnik hisoblar, tajribalar yoki modellashtirishlar o‘tkazish orqali yo‘l-transport hodisasi (<i>to‘qnashuv, urib ketish, ag‘darilish va boshqalar</i>)ning oldini olish uchun xavf tug‘ilgan vaqtini aniqlashi		

Transport vositasining texnik holati ekspertizasi


Transport vositasining texnik holati ekspertizasi – yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositasining texnik holati to‘g‘risidagi faktik ma‘lumotlarni aniqlash yuzasidan o‘tkaziladi. Yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositalarining texnik holati aniqlanishi lozim bo‘lgan asosiy qismlari – bu ularning harakat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi: tormoz tizimi, rul boshqaruvi, harakat qismi va yoritish tizimlari hisoblanadi.




Transport vositasining texnik holati ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:

Transport vositasi va uning alohida qismlarini (tormoz tizimi, rul boshqaruvi va h.k.) texnik holatini belgilash	Transport vositasining texnik nosozliklari hosil bo‘lishi sabablarini aniqlash	Transport vositasining texnik nosozliklari yo‘l-transport hodisasiga nisbatan qachon paydo bo‘lganini belgilash
Transport vositasidagi nosozlik yo‘lga chiqishdan oldin mavjud bo‘lganligini aniqlash	Aniqlangan nosozlik transport vositasining umumiy holatiga qanday ta’sir etishini tadqiq qilish	Aniqlangan nosozlik hamda kelib chiqqan hodisa o‘rtasida sababiy bog‘lanish borligini aniqlash

Transport vositasining tadqiq etilayotgan tizimining ishlash ko'rsatkichlarini aniqlash	Transport vositasining turini aniqlash	Transport vositasining ishlab chiqarilgan yilini aniqlash
---	--	---

Metall va ba'zi nometall jismlardagi yo'q qilingan belgilarini aniqlash ekspertizasi		
<p>Metall va ba'zi nometall jismlardagi yo'q qilingan belgilarini aniqlash ekspertizasini o'tkazish orqali tergov hamda surishtiruv organlari yoki sudlar tomonidan transport vositalari vin-kodi va boshqa turli obyektlarning dvigatellari raqamlari, maxsus obyektlarga o'rnatilgan zavod yorliqlari, zavod tomonidan o'rnatilgan tablichkalarining haqiqiylikiga doir masalalar hal etiladi.</p>		
Metall va ba'zi nometall jismlardagi yo'q qilingan belgilarini aniqlash ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:		
Transport vositasidagi vin raqami ishlab chiqargan korxonadan urilganmi yoki boshqacha usulda bajarilganmi?	Agar vin raqami zavod tomonidan bajarilgan bo'lsa, mazkur transport vositasini ishlab chiqarilgan yilini aniqlash	Vin raqami asosida ishlab chiqargan davlat yoki zavodni aniqlash
Vin raqami asosida modelini aniqlash	Vin raqami asosida transport vositasining o'rindiqlari sonini aniqlash	Vin raqami asosida transport vositasining yuk ko'tarish to'liq vazni aniqlansin.
Transport vositasidagi mavjud belgilarga qarab nechta o'qli transport vositasi hisoblanishini aniqlang.	Transport vositasidagi mavjud belgilarga ko'ra ushbu transport vositasining turi aniqlansin.	

Transport-baholash ekspertizasi		
<p>Transport-baholash ekspertizasini o'tkazish orqali tergov hamda surishtiruv organlari yoki sudlar tomonidan yo'l-transport yoki boshqa hodisa natijasida avtomototransport vositalariga yetkazilgan moddiy zarar, ularni ta'mirlashga sarflanadigan mablag' miqdorini yoki avtomototransport vositalarining narxini aniqlash kabi masalalar hal etiladi.</p>		
Transport-baholash ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:		
Avtomototransport vositalari va uskunalarni identifikatsiya qilish, agar buning uchun boshqa turdagi ekspertizalarni o'tkazish talab qilinmasa	Avtomototransport vositalari va uskunalarning turini, rusumini, modelini, ishlab chiqilgan vaqtini ularning texnik pasportlari yoki boshqa ilova hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga mosligini tekshirish, agar buning uchun boshqa turdagi ekspertizalarni o'tkazish talab qilinmasa	Avtomototransport vositalarining texnik holati va shikastlanishlari mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni tekshirish, agar buning uchun boshqa turdagi ekspertizalarni o'tkazish talab qilinmasa
Avtomototransport vositalaridagi shikastlanishlarning xususiyatini	Avtomototransport vositalarini ta'mirlash ishlarining qiymatini aniqlash	Avtomototransport vositalarining tovar qiymatini yo'qotish miqdorini aniqlash

va ularni bartaraf qilish usullarini aniqlash		
Avtomototransport vositalariga yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash	Avtomototransport vositalarining qiymatini aniqlash	Avtomototransportlar vositasi ehtiyot qismlarining qiymatini aniqlash

Avtomobil-yo'llar ekspertizasi

Avtomobil-yo'llar ekspertizasi – ushbu ekspertiza turi yo'l-transport hodisalarining kelib chiqishiga yo'l sharoitining ta'sir etuvchi omillarini o'rganish va aniqlash yuzasidan o'tkaziladi. Avtomobil yo'llari ekspertizasi obyektlariga – yo'l, yo'l belgilari, yo'l bo'yicha me'yoriy hujjatlar, yo'ldagi qurilmalar, to'siqlar va h.k. kiradi.



Avtomobil-yo'llar ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Yo'lning soz yoki nosozligi, yo'lning holati mavjud me'yoriy hujjatlarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlash	Yo'l belgilarining me'yorlarga mos o'rnatilganligini aniqlash	Yo'ldagi mavjud qurilmalar joylashganligining yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga mos kelishini aniqlash
Voqea sodir etilgan joyda yo'lning qatnov qismi sozligi	Voqea sodir etilgan joyda yo'lning qatnov qismida nosozliklar bormi, agar nosozliklar bo'lsa, ular normativ hujjatlardagi me'yorlarga mosmi?	Yo'l belgilari qo'yilishi voqea sodir etilgan joyda to'g'ri tashkil etilganmi?

Sud-buxgalteriya ekspertizasi

Sud-buxgalteriya ekspertizasi – iqtisodiy ekspertizaning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, u korxonalar (tashkilot), xo'jaliklarning buxgalteriya hujjatlaridagi hisob-kitob jarayonlarini (operatsiyalarini) tahlil qilish, davlat, jamoa mulki talon-toroj qilinganlik va boshqa xo'jalik, mansab jinoyatlarini ochish kabi holatlar yuzasidan o'tkaziladi.




Sud-buxgalteriya ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Muayyan tashkilot (<i>korxonalar, muassasa</i>)ning buxgalteriya hisobi va hisobot hujjatlarida ma'lum davr davomida qo'shib yozishlar mavjudmi?	Qanday qilib muayyan shaxsda ma'lum davr orasida hujjatlarga muvofiq kamomad (<i>ortiqcha</i>) hosil bo'lgan?	Buxgalteriya hisobi va hisobotida tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'lari kamomadi (<i>ortiqchasi</i>) qanday qilib berkitilgan?
Muayyan tashkilotning buxgalteriya hisobida mazkur xo'jalik operatsiyasi qanday aks etgan va uni qanday aks ettirish kerak edi?	Buxgalteriya hisobi qoidalariga binoan kamomad (<i>ortiqcha</i>)ning miqdorini belgilashda taqdim etilgan hujjatlar hisobga olinganmi yoki hisobga olinishi mumkinmi, ushbu hujjatlar hisobga olingan holda kamomadning (<i>ortiqcha</i>) miqdori qanday?	Mavjud tovarlar ma'lum bir vaqtga ularning mumkin bo'lgan qoldiqlariga nisbatan ortiqcha qilib ko'rsatilganmi, agar shu holat mavjud bo'lsa, unda u nimadan dalolat beradi?

Dastlabki va jamlama buxgalteriya hujjatlarida mahsulot ishlab chiqarish haqidagi hisobot ko'rsatkichlari qancha summaga o'zgartirilgan?	Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari summasining oshirilishi yoki kamaytirilishi qanday xo'jalik operatsiyalari bilan bog'liq?	Tovar-moddiy boyliklar (<i>asosiy mablag'larni</i>) qayta baholash asosli ravishda amalga oshirilganmi?
--	---	---


Sud-mehnat iqtisodi ekspertizasi

<p>Sud-mehnat iqtisodi ekspertizasi – ish haqi fondlarining me'yordan ortiqcha sarflanishi, mehnat resurslaridan samarasiz foydalanishiga oid dalillarni aniqlashda sud-mehnat iqtisodi ekspertizasi o'tkaziladi.</p> <p>Sud-mehnat iqtisodi ekspertizasining predmeti bo'lib, mehnat va ish haqi to'lovlari hujjatlaridagi ish haqini to'lash, ularni hisobotlarda to'g'ri aks etishi, mehnat va ish haqini rejalashtirishdagi qoida buzilishi holatlarini aniqlash hisoblanadi.</p>	
--	---

Sud-mehnat iqtisodi ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Ish haqi fondi bo'yicha mehnat resurslarini ajratish va ulardan foydalanishdagi qoidabuzilish holatlarini aniqlash	Ish haqi va mehnat ko'rsatkichlari bajarilishi bo'yicha hisobotlarni tuzilishi va to'g'ri rejalashtirilishini ta'minlovchi shaxslar doirasini aniqlash	Korxonada ishlab chiqarish tarkibining soni, tizimi va tuzilmasi hamda undagi o'zgarishlarni iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash
Mehnatga haq to'lash tarif sistemasini inobatga olgan holda xodimlarning lavozim darajalari bo'yicha hisob-kitobning asosliliigi	Yuqorida keltirib o'tilgan holatlarning tashkilot (korxonada) hisobotlarida to'g'ri aks etishini aniqlash	

Sud-moliya-kredit ekspertizasi

<p>Sud-moliya-kredit ekspertizasi – mazkur ekspertiza moliyalashtirilgan mablag'larning maqsadli taqsimlanishini aniqlash, davlat va mahalliy byudjetga soliqlar, yig'imlar va ajratmalarning to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini aniqlash, tashkilot (byudjet)larning tayinlangan smetalariga amal qilinishini aniqlash, moliyalashtirish va kreditlash sohasidagi qoidabuzilishlar natijasida davlat va korxonada (tashkilot)larga yetkazilgan moddiy zararlar hamda asossiz yaratilgan fondlar va ulardan foydalanish holatlarini aniqlash, bank-kredit mablag'larini maqsadsiz ishlatish kabi holatlarni aniqlash yuzasidan o'tkaziladi.</p>	
--	---

Sud-moliya-kredit ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Ishlab chiqarishni, fan va texnikani, ijtimoiy rivojlantirish, moddiy rag'batlantirish kabi iqtisodiy barqarorlashtirish fondlarining to'g'ri shakllanganligini aniqlash	Korxonaning (<i>tashkilot</i>) kredit mablag'lariga bo'lgan talabi asosliliгинi aniqlash	Korxonada va tashkilotlar tomonidan davlat va mahalliy byudjetlarga to'lovlarni to'liq va o'z vaqtida o'tkazib berilishini aniqlash
--	--	---

Byudjet tashkilotlari tomonidan (<i>fan, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqalar</i>) pul mablag'larining asosli sarflanishini aniqlash	Iqtisodiy barqarorlashtirish fondlariga yo'naltirilgan ajratmalarning to'g'riligi va ulardan oqilona foydalanilishini aniqlash	Tashkilotlar o'rtasida mahsulotni sotish, xizmatlar, ishlar bajarish bo'yicha qilinadigan hisob-kitoblar to'g'riligi va bajarilmagan shartnoma majburiyatlari bo'yicha qo'llanilgan iqtisodiy sanksiyalarning asosligini aniqlash
Korxonalar tomonidan kreditlash tartibiga amal qilinmaslik natijasida bank tomonidan qo'llanilgan sanksiyalarning to'g'riligi va asosligini aniqlash	Byudjet hamda yuqori turuvchi tashkilotlar bilan hisob-kitoblar va pul, kredit mablag'larining sarflanish qoidalarini buzish holatlarini aniqlash	Moliyaviy rejalar to'g'ri tuzilishini, olingan mablag'lar va kreditlar maqsadli ishlatilishini, byudjet daromadlariga yo'naltirilgan soliqlarni to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlovchi shaxslar doirasini aniqlash

Sud-rejali iqtisodiy ekspertizasi

Sud-rejali iqtisodiy ekspertizasi soliq va boshqa ko'rsatkichlarning miqdori bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishi haqidagi hisobotni buzib ko'rsatish va shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga tegishli ma'lumotlar hujjatlarda noto'g'ri aks etishi natijasida moddiy zarar yetkazilgan hollarda o'tkaziladi.



Sud-rejali iqtisodiy ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Rejalashtirish, rejalarni bajarish va hisobot tayyorlashda kamchiliklarga yo'l qo'yilganmi, agarda shunday bo'lsa, qaysi me'yoriy qoidalar talabi buzilgan?	Yillik (chorak) hisobot tuzishda qo'shib yozish holatlari mavjudmi?	Hisobot tuzishda belgilangan tartib buzilganmi?
Qo'shib yozishlar topshiriq bajarish foizini oshirib ko'rsatish usuli emasmi?	To'g'ri rejalashtirish, rejalarni bajarish va ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlarini hisobotda aks ettirish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar aniqlansin.	Rejalashtirish ko'rsatkichlariga binoan reja bajarilishining haqiqiy imkoniyati qanday, ya'ni tashkilot bajarilishi mumkin bo'lmagan rejalarni oldindan belgilamaganmi?


Sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi


Sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarish bo'yicha hisobotlarni tuzishdagi statistik uslublar va statistik hisobotlarni tuzishdagi qoidabuzilish holatlarini aniqlash yuzasidan o'tkaziladi.


Sud-iqtisodiy-statistika ekspertizasi sud-rejali iqtisodiy ekspertiza bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy statistika ekspertizasida qayta ishlab chiqarish jarayonlari iqtisodiy ko'rsatkichlarni tuzish usullari va tahlil qilish qoidalarini ishlab chiqadi.




Sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:		
Iqtisodiy ko'rsatkichlar bajarilishi bo'yicha hisobot tayyorlashda barcha statistik uslublar qo'llanganmi?	Agar bularning barchasi qo'llanmagan bo'lsa, unda taqdim etilgan ma'lumotlarga qanday ta'sir qilgan?	Korxonada statistik hisob-kitob olib borish me'yoriy hujjatlar talabiga javob beradimi?
Statistik iqtisodiy ko'rsatkichlarning haqiqiyliги va solishtirilishini ta'minlay olmaydigan kamchiliklar statistik hisobot olib borishda uchraydimi?		


Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi		
Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning chet davlatlardagi jismoniy va yuridik shaxslar bilan tovar, ishlar (xizmatlar)ni import va eksport qilish bo'yicha amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari bo'yicha yangi dalillarni hamda dastlabki tergov davrida olib borilgan tekshiruv chog'ida aniqlanmagan boshqa ko'rsatkichlar yoki tekshiruvlar natijasida belgilangan o'xshash dalillarning ishonchliligi hamda yig'ilgan hujjatlar asosida shubha tug'diradigan boshqa omillarni aniqlashda Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi o'tkaziladi.		
Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:		
Muayyan sana holatiga valyuta kursini qo'llash va milliy valyuta (so'm) miqdorini chet el valyutasiga qayta hisoblashning to'g'riligi	Tovar, ishlar (xizmatlar)ni olib chiqish va olib kirish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish qismi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligiga rioya qilish	Shartnoma majburiyatlariga amal qilish bo'yicha eksport va import shartnomalarni baholash; bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish (to'ldirish) tartibiga rioya qilish
Rasmiy narxlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishni hisobga olgan holda jahon narxlari darajasi bilan taqqoslaganda eksport va import shartnomalarida ko'zda tutilgan narxlarning oshishi (kamayishi)ni belgilash	Tashqi savdo oldi-sotdi shartnomasi asosida olingan, import (eksport) qilingan tovarlar soni va qiymatini belgilash	Tashqi savdo oldi-sotdi shartnomasini bajarish doirasida pul mablag'lar va hisob-kitoblarning hisobini yuritish va harakatlanish sistemasini belgilash (valyuta tushumining o'z vaqtida tushishi)
Tashqi savdo shartnomalarida ko'zda tutilgan hujjatlarning mavjudligi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilishi	Birlamchi hujjatlar bo'yicha tovarlarning assortimenti, rusumi, texnik tafsiloti va soni bo'yicha shartnomalarning shartlariga muvofiqligini aniqlash	Yetkazib beruvchining hisob-fakturasi bo'yicha o'rinlar soni va tovar vaznining transport hujjatlarda, tasnif va sertifikatlarda keltirilgan o'rinlar soni va tovar vazniga muvofiqligi

Sud-soliq ekspertizasi		
<p>Sud-soliq ekspertizasi – Sud-soliq ekspertizasi jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy-xo‘jalik operatsiyasi oqibatida vujudga kelgan soliq oqibatlarini aniqlash, soliq hisoblanishida soliq qonunchiligini tartibga soluvchi qoida va me‘yorlarga rioya etilganlik holatlarini aniqlash masalalari yuzasidan o‘tkaziladi.</p>		
Sud-soliq ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:		
Budjetga to‘lanadigan soliqlarning to‘liqligi	Soliqlarning vaqtida to‘lanishi	Soliq elementlari (<i>stavka, soliq solish bazasi va h.k.</i>) aniqlanishi to‘g‘riligi
Soliq tekshiruvi dalolatnomasida qo‘shimcha hisoblangan soliqlarning normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligi	Soliq tekshiruvi dalolatnomasida qo‘shimcha hisoblangan soliqlarning uslubiy jihatdan asoslanganligi	Hujjatli tekshiruv (<i>taftish, audit</i>) o‘tkazish davrida tekshiruvchi (<i>taftishchi, auditor</i>) tomonidan qo‘llanilgan usul va uslublarning to‘g‘riligi (<i>asoslanganligi</i>)
Soliqlar va yig‘imlarni hisoblashning asosiligi va to‘liqligining soliq qonunchiligi talablariga muvofiqligini aniqlash	Soliqlar va yig‘imlarni davlat byudjetiga to‘liq yoki qisman yo‘naltirilganligini aniqlash	Soliq qonunchiligi talablariga rioya etmaganlik holatlarini (<i>masalan, soliq solish bazasini (yoki boshqa soliq elementlarini)</i>) aniqlashda soliq qonunchiligi me‘yorlari bo‘yicha tadqiq qilish

Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi		
<p>Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi – jinoyat sodir qilgan va tergov idoralaridan yashirinib yurgan shaxsi noma‘lum aybdorni aniqlash, o‘zining shaxsi to‘g‘risida ma‘lumot bermayotgan yoki noto‘g‘ri ma‘lumotlar berib, tergov idoralarini chalg‘itayotgan gumondor sifatida ushlangan gumon qilinuvchining shaxsini aniqlash, nizoli otalik yoki onalik yoxud qarindoshlik masalasini hal etish, DNK ma‘lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan genotiplar bilan solishtirish, biologik obyektlarning molekulyar genetik tadqiqotlar uchun yaroqliligini aniqlash, ekspertiza tekshiruvi uchun taqdim etilgan ashyolardagi biologik izlarning kimdan kelib chiqqanligini aniqlash, birinchi darajadagi biologik qarindoshchilikni, ya‘ni biologik otalik va onalik faktlarini aniqlash, ikkinchi va uchinchi darajadagi qarindoshlik (biologik aka-uka, opa-singil, bobo (buvi)-nabira o‘rtasidagi munosabatlar, ota avlod bo‘yicha qarindoshchilikni aniqlash va boshqalar) faktlarini aniqlash hamda shaxsning populyatsion kelib chiqishini aniqlash kabi masalalarni hal qiladi.</p>		
Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:		
Ekspertizaga taqdim etilgan bo‘laklarga bo‘lingan odam tanasi qismlari: kalla suyagi, tana qismi, oyoq suyaklari bitta murdaga yoki bir necha murdalarga tegishlimi?	Ekspertizaga taqdim etilgan bo‘laklarga bo‘lingan odam tanasi qismlari: kalla suyagi, tana qismi, oyoq suyaklari tegishli bo‘lgan shaxs G.A. va T.A.ning biologik farzandimi?	S.A. 2002-yil 15-mayda tug‘ilgan I.S.ning biologik onasi ekanligi tasdiqlanadimi yoki tasdiqlanmaydimi?


U.A. 2002-yil 15-mayda tug‘ilgan I.S.ning biologik otasi ekanligi tasdiqlanadimi yoki tasdiqlanmaydimi?	U.A. 2002-yil 15-mayda tug‘ilgan I.S.ning biologik otasi ekanligi tasdiqlanadimi yoki tasdiqlanmaydimi?
Ekspertiza tekshiruvini uchun taqdim etilgan ashyoda biologik materiali aniqlangan erkak genetik jinsidagi noma'lum shaxs G.G. bilan bir ota avlod bo'yicha yaqin qarindoshmi yoki qarindosh emasmi?	

Sud-ekologiya ekspertizasi		
<p>Sud-ekologiya ekspertizasi o‘simliklarning zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashish qoidalarining buzilishi, zararli kimyoviy moddalarni qo‘llash, baliq xo‘jaligi havzalarini qo‘riqlash, suv havzalarini, havoni, tuproqni, dengizni yoki dengiz tirik boyliklari, odam sog‘lig‘i uchun zararli moddalarni yoki boshqa chiqindilar va materiallarni tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar yuzasidan o‘tkaziladi.</p>		
Sud-ekologiya ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:		
Ekspertizaga taqdim etilgan atrof-muhit obyektlarida (<i>tuproq, suv, o‘simliklar</i>) zaharli kimyoviy moddalar (<i>og‘ir metallar</i>) bormi, agar bor bo‘lsa ularning aynan qandaylari mavjud	Ekspertizaga taqdim etilgan namunalarda pestitsidlar (<i>xlorofos, DDT, fosfamid va h.k.</i>) bormi?	Ekspertizaga taqdim etilgan namunalarda zaharli moddaning miqdori qancha?
Ekspertizaga taqdim etilgan modda zaharli birikmalar guruhiga kiradimi, uning zaharliligi va atrof-muhit obyektlarida qanday muddat mobaynida saqlanadi?	Ekspertizaga taqdim etilgan suv havzasi, tuproq, o‘simliklar muayyan modda bilan ifloslanganmi, agar shunday bo‘lsa, unda ifloslanish manbai qanday?	

Sud-agrotexnik (agrobiologik) ekspertizasi		
<p>Sud-agrotexnik (agrobiologik) ekspertiza – bu qishloq xo‘jaligi ekspertizasining bir turidir. Ushbu tadqiqot qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish jarayonini tahlil qilib, madaniy ekinlar, tuproq va suv resurslarida sodir bo‘ladigan biologik va kimyoviy jarayonlarning xususiyatlarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.</p>		
Sud-agrotexnik (agrobiologik) ekspertiza quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o‘tkaziladi:		
Taqdim etilgan qishloq xo‘jalik ekinining nomlanishi va sifat xususiyatlari qanday, ular taqdim etilgan hujjatda ko‘rsatilganiga mos keladimi?	Bir joydan (qayerdanligi ko‘rsatiladi) va boshqa joydan (qayerdanligi ko‘rsatiladi) olingan don (ekin, un) bir xilmi, ularning bir (yagona) to‘plamga tegishligi inkor etilmaydimi?	Taqdim etilgan don (ekin) bu yilgi hosilmi yoki oldingi yillarda yetishtirilgan hosilmi (ushbu savol alohida holatlarda hal etiladi). Ushbu don (ekin) tegishli hujjatlarda ko‘rsatilganiga mos keladimi?
Ushbu ekin doni kuzgimi yoki bahorgi (lalmi) hosilmi?	Ma’qul sharoitlarda, tekshirilayotgan daladan	Taqdim etilgan hujjatlardagi tekshirilayotgan dalaga tegishli

	(maydon) tegishli qishloq xo'jalik ekinining qanday hosilini olish mumkin edi?	ekinining aniq miqdori ekilganligi bo'yicha ma'lumotlar haqqoniy bo'lishi mumkinmi?
Ko'rsatilgan ekin tekshirilayotgan daladan yig'ib olinishi mumkinmi?	Navlarga ajratish va ishlov berishda donni chiqitga hisobdan chiqarish to'g'ri bajarilganmi?	Ekish uchun tayyorlab qo'yilgan urug'larga, ularni navlarga ajratish, dorivor ishqor bilan ishlov berish bo'yicha ta'sir ko'rsatilganmi?

Sud-veterinariya (veterinar-toksikologik) ekspertizasi

<p>Sud-veterinariya (veterinar-toksikologik) ekspertizasi hayvon, qush va baliqlarning nobud bo'lishi sabablari, kasallanish xususiyati, kasalliklarni aniqlash muddati, epizotiyaga qarshi, davolash-profilaktik, sanitariya-zoologik tadbirlarning to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilganligi, kasallangan hayvonlarni izolyatsiya qilish tartibi, iste'molga yaroqli yem-xashak va ozuqalardan to'g'ri foydalanganlik, hayvonlar va qushlarning teri, mo'yna, par va boshqa xomashyolaridan foydalanish sharoitlarini aniqlash bo'yicha maxsus savollar yuzasidan o'tkaziladi.</p>	
--	---

Sud-veterinariya (veterinar-toksikologik) ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Hayvonning o'limiga nima sabab bo'lgan?	Hayvonning nobud bo'lish muddati qanday?	Hayvonning nobud bo'lishiga qanday tashqi omillar ta'sir qilgan?
Hayvon (<i>qush, baliq va h.k.</i>) biron kasallik bilan kasallanganmi, agar kasallangan bo'lsa, ushbu kasallik qachon boshlangan va uning sabablari nimada?	Hayvonlarni boqish, parvarishlash, saqlash va ulardan foydalanish sharoitlari to'g'rimi?	Qoramol (<i>qush, baliq</i>) fermasiga tutash bo'lgan xo'jalik (<i>yaylov, o'tloq, bog', dala maydoni, o'rmon</i>)da qanday dezinfekcion, meliorativ, agronomik, qurilish va boshqa tadbirlar amalga oshirilgan va yuqorida sanab o'tilgan tadbirlar jarayonida ishlatilgan vositalar ushbu hayvonlarning nobud bo'lishiga ta'sir ko'rsatganmi?
Hayvonlarning sog'ligi, xo'jalikda o'tkazilgan gijjalarga qarshi va boshqa shu kabi tadbirlar o'tkazishga imkon berganmi, ushbu tadbirlarni kechroq o'tkazish imkoniyati mavjud edimi?	Kasallangan, nobud bo'lgan yoki majburiy o'ldirilgan hayvonlar patalogik materiallarining gistologik, biokimyoviy, bakteriologik, kimyoviy-toksikologik va boshqa tadqiqotlari natijalari qanday?	Yem-xashak, ozuqa va sug'orish suvlari qoldiqlarining kompleks laboratoriya (<i>botanik, organoleptik, biokimyoviy, kimyoviy-toksikologik, bakteriologik, biologik</i>) tadqiqotlari natijalari qanday?

Sud-san'atshunoslik ekspertizasi

Sud-san'atshunoslik ekspertizasi – musiqiy va badiiy asarlarning mualliflik huquqi buzilishiga oid ishlar yuzasidan o'tkaziladi. Badiiy, musiqiy hamda tasviriy san'at asarlari mazkur ekspertizaning obyektlari hisoblanadi.



Sud-san'atshunoslik ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Taqdim etilgan badiiy (musiqiy, tasviriy san'at) asari mustaqilmi, plagiatmi yoki kompilyatsiyami?	Tadqiqotga taqdim etilgan asarning muallifi ushbu shaxs bo'lishi mumkinmi?	Taqdim etilgan tasviriy san'at asari badiiy qimmatga egami?
Taqdim etilgan san'at asari original yoki nusxami?	Ushbu asarning yaratilishi vaqtini (davrini) aniqlash mumkinmi?	Ushbu asarning muallifi kim bo'lishi mumkin?
Taqdim etilgan san'at asari, ushbu turdagi asarni yaratish yo'nalishlarining qaysi maktabiga tegishli?		Taqdim etilgan san'at asari restavratsiya qilinganmi yoki o'zgartirilganmi, agar shunday bo'lsa, aynan qay usulda o'zgartirilgan bo'lishi mumkin?

Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi

Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi – texnik ekspertizalar sinfiga kiruvchi mustaqil ekspertiza turi bo'lib, tergov jarayonidagi obyektning kompyuterlar, har xil turdagi va shakldagi raqamli axborot tashuvchi vositalar (*alohida yoki boshqa qurilmalarning bir qismi sifatida – videoregistratorlar, raqamli kameralar, GPS navigatorlar, MR3-pleyerlar va boshqalar*) mobil qurilmalar (*mobil telefonlar, smartfon, planshet*) holatini, jinoyatni sodir etish jarayonidagi rolini aniqlash, axborot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarda jinoyatga aloqador ma'lumotlarni ajratib olish uchun qurilmalar xotirasiga xavfsiz yo'llar bilan kirish hamda ma'lumotlarni tahlil qilish maqsadida o'tkaziladi.



Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish yuzasidan o'tkaziladi:

Taqdim qilingan raqamli axborot tashuvchi qurilma (kompyuter texnikasi, kompyuter qurilmasi, mobil qurilma va boshqalar) tadqiqot uchun yaroqlimi?	Kompyuter qurilmasi (mobil qurilma)ning internet tarmog'iga ulangan yoki ulanmaganligi va qanday saytlarga qachon kirganligi bo'yicha ma'lumotlarni aniqlash	Kompyuterga (noutbuk) qanday tashqi qurilmalar ulangan va qachon (ulangan qurilmalar ro'yxati)?
Kompyuter xotirasida muqaddam o'chirilgan fayllar mavjudmi?	Taqdim qilingan DVR qurilmasi xotirasida xx.xx.20xx-yildagi olingan videofayllar mavjudmi? Mavjud bo'lmasa, ularni chiqarib olish imkoniyati mavjudmi?	Taqdim etilgan axborot tashuvchi qurilma(lar)da quyidagi ma'lumotlar (ma'lumotlar nima haqidaligini ko'rsatgan holda) haqida axborot mavjudmi?
Taqdim qilingan mobil qurilma xotirasida mavjud, muqaddam o'chirilgan SMS-xabarlar (shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi), audio-video fayllar, hujjatlar, kirish-chiqish qo'ng'iroqlari ro'yxati va boshqalar chiqarib olib, taqdim qilinsin.		

Yuqorida keltirilgan savollar ro'yxati taxminiy hisoblanadi va ishning holatiga qarab ekspertizada hal etish uchun boshqa savollar qo'yilishi mumkin.

III bob. SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATIGA OID FUQAROLARIMIZDAN KO‘P BERILADIGAN SAVOLLAR VA ULARGA JAVOBLAR

Savol: Sud ekspertiza hamda sud-ekspertlik faoliyati deganda nima tushuniladi?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra, **sud ekspertizasi** – bu fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma‘muriy sud ishlarni yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakatdir.

Sud-ekspertlik faoliyati esa sud ekspertizasini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha faoliyatdir.

Savol: Sud eksperti va davlat sud eksperti kim hamda ularning farqi nimada?

Javob: «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, **sud eksperti** deganda, xulosa berish uchun fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs tushuniladi.

Ushbu moddaga asosan, **davlat sud eksperti** deganda, davlat sud-ekspertiza muassasasining o‘z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o‘tkazuvchi sud eksperti tushuniladi.

Shuningdek, mazkur Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, sud eksperti sifatida davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Boshqa tashkilot xodimi sud ekspertizasini uni tayinlagan organ (shaxs) tomonidan mazkur tashkilotga berilgan topshiriqni bajarish tartibida o‘tkazadi.

Ishda sud eksperti sifatida ishtirok etish uchun jalb etilgan boshqa jismoniy shaxs biron-bir davlat sud-ekspertiza muassasasi shtatida turmaydi va sud ekspertizasini uni tayinlagan organning (shaxsning) topshirig‘ini bajarish tartibida o‘tkazadi.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar sud eksperti sifatida jalb etilishi mumkin emas. Shaxsning sud eksperti sifatida ishtirok etishini istisno etadigan boshqa holatlar protsessual qonunda nazarda tutiladi.

Sud eksperti ish holatlarini tekshirishda faqat o'ziga topshirilgan sud ekspertizasi predmetiga taalluqli va xulosa berish uchun ahamiyatga molik masalalar bo'yicha ishtirok etadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov organlari, sud va sud muhokamasidagi taraflar sud ekspertiga faqat unga topshirilgan sud ekspertizasi va u tomonidan berilgan xulosa munosabati bilan murojaat etishga haqli.

Sud eksperti faqat o'zi tomonidan berilgan xulosa va shaxsan o'tkazgan tekshirishlari yuzasidan so'roq qilinishi mumkin.

Sud ekspertini u xulosa berguniga qadar so'roq qilish taqiqlanadi.

Savol: Sud ekspertizasini o'tkazishga nimalar asos hisoblanadi?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o'tkazish asoslaridir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Advokatura to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga asosan advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog'ida iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan ekspertiza o'tkazilishini so'rash huquqi belgilangan.

Ushbu Qonunning 7¹-moddasiga asosan advokat so'roviga ko'ra ekspertiza xulosasini olish muddatlari davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilanadi hamda advokat so'roviga orderning ko'chirma nusxasi, sud ekspertizasi advokat so'roviga ko'ra tayinlanganda esa o'rganish obyektlari va to'laqonli ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan ish materiallari ham ilova qilinadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi hamda advokatning so'rovi sud ekspertizasini o'tkazish asoslari hisoblanadi.

Savol: Fuqarolarning murojaatlari asosida sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilishi mumkinmi?

Javob: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6256-son Farmoniga asosan, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga **Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga ko'ra shartnoma asosida** jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq, sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqot o'tkazish huquqi berildi. Bunda, tadqiqot natijalariga ko'ra **mutaxassis fikri** taqdim etiladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 706-son qaroriga muvofiq, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, mazkur ro'yxatda **51** turdagi sud-ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishga ruxsat berish belgilangan.

Bugungi kunda ushbu ro'yxatdagi tadqiqot turlari bo'yicha davlat sud-ekspertiza muassalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o'tkazilib, natijasiga ko'ra **mutaxassis fikri** taqdim etilib kelinmoqda.

Mazkur huquq jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini sud va tergov organlarida himoya qilishlariga xizmat qilmoqda.

Savol: Sud ekspertining xulosasi qanday hujjat?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga asosan, **sud ekspertining xulosasi (xulosa)** sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur Qonunning 23-moddasiga ko'ra, sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha sud eksperti yoxud sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir sud eksperti imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

«Xulosada:

sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy;

sud ekspertizasini o'tkazish asosi;

sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;

sud eksperti (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar;

bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv

yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun sud eksperti jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi;

sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar;

sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari;

sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar; qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va natijalari, shuningdek bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi;

tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;

ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar ko'rsatilishi lozim».

Xulosada huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa tashkilotda qonunchilikda belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) talabiga binoan ishga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi.

Agar taqdim etilgan tekshirish obyektlarining, materiallarning yoki sud ekspertining maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshirish davomida ma'lum bo'lib qolsa, xulosa ayrim qo'yilgan savollarga javob berishni rad etish asosini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Tekshirish tugaganidan so'ng xulosa, tekshirish obyektlari va ish materiallari sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi.

Savol: Sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, sud ekspertining mustaqilligi, sud-ekspert tekshirishlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

Mazkur Qonunning 5-moddasiga asosan, sud-ekspertlik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Ushbu Qonunning 6-moddasiga muvofiq, sud-ekspertlik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlarida nazarda tutilgan inson huquq va erkinliklariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Shaxsning erkinligini vaqtincha cheklashni yoki uning shaxsiy daxlsizligi buzilishini talab etuvchi sud-ekspert tekshirishlari faqat qonunda belgilangan asoslar va tartibda o‘tkaziladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxonalar, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasi o‘tkazilishi munosabati bilan qabul qilingan qarorlar, sud ekspertining harakatlari (harakatsizligi) o‘z huquq va erkinliklarining cheklanishiga olib keldi deb hisoblagan shaxs mazkur qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Bundan tashqari, ushbu Qonunning 7-moddasiga muvofiq, sud eksperti sud ekspertizasini o‘tkazishda sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan), taraflardan va ishning natijasidan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslardan mustaqildir.

Sud eksperti o‘zining fan, texnika, san’at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlariga muvofiq o‘tkazilgan tekshirishlar natijalariga asoslanib xulosa beradi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs), shuningdek boshqa davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan taraflardan birortasining yoki ishning natijasidan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslarning foydasini ko‘zlab xulosa olish maqsadida sud ekspertiga ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yuqorida qayd etilgan Qonunning 8-moddasiga binoan sud eksperti tekshirishlarni xolisona, qat’iy ilmiy va amaliy asosda, tegishli ixtisoslik doirasida, har tomonlama va to‘liq hajmda o‘tkazadi.

Sud ekspertining xulosasi (xulosa) qilingan fikrlarning asoslilik va ishonchliligini umume’tirof etilgan ilmiy va amaliy ma’lumotlar bazasiga muvofiq tekshirish imkoniyatini beradigan qoidalarga asoslanishi lozim.

Savol: Sud ekspertining mustaqilligi bo‘yicha huquqiy asos va uning oqibatlari qanday?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 7-moddasiga ko‘ra, sud eksperti sud ekspertizasini o‘tkazishda sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan), taraflardan va ishning natijasidan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslardan mustaqildir.

Sud eksperti o'zining fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlariga (bundan buyon matnda maxsus bilimlar deb yuritiladi) muvofiq o'tkazilgan tekshirishlar natijalariga asoslanib xulosa beradi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs), shuningdek boshqa davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan taraflardan birortasining yoki ishning natijasidan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslarning foydasini ko'zlab xulosa olish maqsadida sud ekspertiga ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Savol: Sud ekspertiga nisbatan malakaga oid qanday talablar mavjud?

Javob: «Sud ekspertisasi to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, **sud eksperti** deganda, xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs tushunilishi belgilangan.

Shuningdek, «Sud ekspertisasi to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasiga ko'ra, **Davlat sud eksperti** lavozimini oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lgan, muayyan sud-ekspert ixtisosligi bo'yicha keyingi tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi egallashi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 16-dekabrdagi 300-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomga muvofiq, **Davlat sud eksperti** mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarlikdan va davlat sud eksperti sifatida belgilangan tartibda attestatsiya o'tkazilgandan so'ng, ularga mustaqil ravishda sud ekspertizasini o'tkazish huquqini beruvchi guvohnoma beriladi.

Sud eksperti sifatida jalb etiladigan boshqa tashkilot xodimi va boshqa jismoniy shaxs oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lishi lozim.

Savol: Qo'shimcha va qayta ekspertiza nima uchun tayinlanadi va qanday o'tkaziladi?

Javob: «Sud ekspertisasi to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasiga ko'ra, qo'shimcha sud ekspertisasi xulosadagi bo'shliqlarning o'rnini to'ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) tomonidan o'tkaziladi.

Xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud

ekspertizasini o'tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertizasi tayinlanadi.

Qayta sud ekspertizasi tayinlanganda sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkin.

Qayta sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda qayta sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) birinchi (oldingi) sud ekspertizasi xulosasiga qo'shilmaganligi sabablari ko'rsatilishi lozim.

Qayta sud ekspertizasini o'tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o'tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirish o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

«Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o'tkazish asoslaridir.

Savol: Ekspertiza xulosasi berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat qaysi holatlarda tuziladi?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq, agar sud eksperti qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuzadi hamda uni sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboradi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizamning 23-bandiga asosan, quyidagi holatlarda sud eksperti tomonidan xulosa yoki mutaxassis fikri berishning imkoni yo'qligi to'g'risida asoslangan ma'lumotnoma tuziladi hamda uch ish kuni mobaynida ekspertizani tayinlagan vakolatli organga (shaxsga), advokatga, jismoniy yoki yuridik shaxsga yuboriladi:

a) agar sud eksperti hal qilinishi kerak bo'lgan savollarni o'zining maxsus bilimlari asosida hal qilishi mumkin bo'lmasa;

b) agar qo'yilgan masala sud ekspertining maxsus bilimlari (vakolatlari) doirasidan chetga chiqsa yoki uni hal etish uchun maxsus bilimlar talab qilinmasa yoxud masala huquqiy tusga ega bo'lsa;

c) taqdim etilgan tadqiqot obyektlari yoxud ish materiallari to'liq yaroqsiz yoki xulosa berish uchun yetarli bo'lmasa, ularni to'ldirib bo'lmasa;

tadqiqotlarni o'tkazish va xulosalar berish uchun zarur shart-sharoitlar, tadqiqot uslubi va maxsus asbob-uskunalar mavjud bo'lmasa, shu jumladan, sud eksperti hayoti va salomatligiga kasbiy tavakkalchilik chegarasidan ziyod xavf tug'ilsa;

d) fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati hal qilinishi kerak bo'lgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilinsa.

Xulosa berish yoki mutaxassis fikri berishning imkoni yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnoma ushbu Namunaviy nizomning 43-bandiga muvofiq tuziladi.

Namunaviy nizomning 43-bandiga ko'ra xulosa yoki mutaxassis fikrini berishning imkoni yo'qligi to'g'risida asoslangan ma'lumotnoma uch qismdan: kirish, asoslovchi va yakunlovchi qismlardan iborat bo'ladi.

Kirish qismida ushbu Namunaviy nizomning 31-bandida ko'rsatilgan ro'yxatga muvofiq ma'lumotlar bayon qilinadi.

Asoslovchi qismida xulosa yoki mutaxassis fikri berishning iloji yo'qligi sabablari batafsil bayon qilinadi.

Yakunlovchi qismida sud eksperti oldiga qo'yilgan har bir masala bo'yicha xulosa berishning iloji yo'qligi ko'rsatiladi.

Xulosa yoki mutaxassis fikrini berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi dalolatnoma ikki nusxada tuziladi, sud eksperti tomonidan imzolanadi, uning imzosi ekspertiza tashkiloti muhri bilan tasdiqlanadi, shundan keyin uning bir nusxasi ekspertiza tashkiloti rahbari tomonidan ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ga, advokatga yoki mutaxassis fikrini olish uchun murojaat qilgan jismoniy yoxud yuridik shaxsga yuboriladi, ikkinchi nusxasi esa ekspertiza tashkilotida 5 yil mobaynida saqlanadi.

Agar xulosa yoki mutaxassis fikrini berish imkoni yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnoma sudda ko'rib chiqish bosqichida tuzilgan bo'lsa, u sud eksperti tomonidan ikki nusxada tuziladi va imzolanadi, ulardan biri sudga, ikkinchisi esa ekspertiza tashkiloti rahbariga taqdim etiladi.

Savol: Qo‘shimcha va qayta ekspertizalar bir-biridan qanday farq qiladi?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 18-moddasiga asosan, qo‘shimcha sud ekspertizasi xulosadagi bo‘shliqlarning o‘rnini to‘ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.

Xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud ekspertizasini o‘tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertizasi tayinlanadi.

Qayta sud ekspertizasi tayinlanganda sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) oldiga ilgari qo‘llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to‘g‘risidagi masala qo‘yilishi mumkin.

Qayta sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qarorda yoki ajrimda qayta sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) birinchi (oldingi) sud ekspertizasi xulosasiga qo‘shilmaganligi sabablari ko‘rsatilishi lozim.

Qayta sud ekspertizasini o‘tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o‘tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o‘tkazishda hozir bo‘lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirish o‘tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

Savol: Komissiyaviy va kompleks ekspertizalari qachon o‘tkaziladi?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 19-moddasiga ko‘ra, sud ekspertizasi bir xil (komissiyaviy sud ekspertizasi) yoki turli xil (kompleks sud ekspertizasi) sud-ekspert ixtisosligidagi bir necha sud eksperti tomonidan o‘tkazilishi mumkin.

Sud ekspertizasining sud ekspertlari komissiyasi tomonidan o‘tkazilishi sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) yoki mazkur ekspertizaning o‘tkazilishini tashkil etuvchi davlat sud-ekspertiza muassasasi yoxud boshqa tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.

Sud ekspertizasini o‘tkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi o‘z oldiga qo‘yilgan masalalarni hal etish zarurligidan kelib chiqib, o‘tkaziladigan tekshirishlarning maqsadi, ketma-ketligi va hajmini kelishib oladi.

Sud ekspertizasini o‘tkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi tarkibidagi har bir sud eksperti tekshirishlarni mustaqil va alohida olib boradi, shaxsan o‘zi va komissiyaning boshqa a‘zolari tomonidan olingan natijalarni

baholaydi hamda qo'yilgan savollar yuzasidan o'z maxsus bilimlari doirasida fikrlarini shakllantiradi.

Tekshirishlarning sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiritilmagan shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mazkur Qonunning 20-moddasiga asosan, komissiyaviy sud ekspertizasi o'tkazilayotganda sud ekspertlarining har biri tekshirishlarni to'liq hajmda o'tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi.

Sud ekspertlari umumiy fikrga kelganidan so'ng birgalikdagi xulosani yoki xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi.

Sud ekspertlari o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

Ushbu Qonunning 21-moddasiga muvofiq, kompleks sud ekspertizasi ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir necha tekshirish o'tkazish yo'li bilangina aniqlash mumkin bo'lgan hollarda tayinlanadi.

Kompleks sud ekspertizasini o'tkazishda sud ekspertlarining har biri o'z vakolati doirasida tekshirishlar olib boradi. Kompleks sud ekspertizasining xulosasida sud ekspertlarining har biri qaysi tekshirishlarni va qancha hajmda olib borganligi, qaysi holatlarni shaxsan o'zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko'rsatiladi. Sud ekspertlarining har biri xulosaning ushbu tekshirishlar bayon etilgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo'ladi.

Olingan natijalarni baholashga va ushbu fikrni (fikrlarni) shakllantirishga vakolatli bo'lgan sud ekspertlari umumiy fikrni (fikrlarni) shakllantiradi. Agar sud ekspertlari komissiyasi yakuniy fikrining yoki uning bir qismining asosi sifatida sud ekspertlaridan birining (alohida sud ekspertlarining) aniqlagan holatlari olingan bo'lsa, bu haqda xulosada ko'rsatilishi kerak.

Sud ekspertlari o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

Agar kompleks sud ekspertizasini o'tkazish davlat sud-ekspertiza muassasasiga topshirilgan bo'lsa, unda ushbu ekspertizani tashkil qilish uning rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Savol: Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini tashkil etishga doir qanday talablar mavjud?

Javob: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019-yil 17-yanvardagi

PQ-4125-son qaroriga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini tashkil etilgan hamda **44 ta** tur sud-ekspertizalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazishga ruxsat berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, ushbu Nizom nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlari bo'yicha sud ekspertizasini o'tkazishga ixtisoslashtirilgan, shtatida sud eksperti sertifikatiga ega mutaxassislar bo'lgan tashkilot hisoblanadi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti rahbari sifatida faqat sud eksperti faoliyat olib borishi mumkin.

Sud eksperti faqat bitta nodavlat sud-ekspertiza tashkilotining muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi mumkin.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud ekspertizasini o'tkazishda davlat sud-ekspertiza muassasalari kabi funksiyalarni amalga oshiradi, ular kabi huquqqa ega bo'ladi, majburiyatlarni bajaradi va javobgar hisoblanadi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti faqat sud ekspertizasini amalga oshirish faoliyati bilan shug'ullanishga haqli.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotining firma nomida uning nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti ekanligi ko'rsatilishi shart.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida ruxsat etilgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha shartnomaga muvofiq tadqiqotlar o'tkazishi mumkin. Tadqiqot natijalari bo'yicha mutaxassis fikri beriladi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti o'zining mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqi asosidagi binoga, tegishli sud ekspertizasini xavfsiz amalga oshirishga imkon beradigan va standartlar talablariga mos bo'lgan moddiy-texnik bazasiga ega bo'lishi lozim.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti tomonidan sud-ekspertlik faoliyatini turar joyda amalga oshirish taqiqlanadi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotida sud ekspertizasi shartnomaga muvofiq pullik asosda amalga oshiriladi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti amalga oshiriladigan sud ekspertizasi narxlarini mustaqil belgilaydi.

Savol: Nodavlat sud ekspertlarini qayta tayyorlash qanday tartibda amalga oshiriladi?

Javob: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan sud ekspertlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga mas’ul muassasalar belgilangan, bular: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti, Fanlar akademiyasining Botanika instituti hamda O‘zbekiston Badiiy akademiasidir. Ushbu muassasalarda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ–4125-son qaroriga 1-ilovada belgilangan ekspertiza turlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomning 2-bobiga asosan, sud ekspertlarini qayta tayyorlashning maqsadi – sud ekspertizalarining muayyan turi bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakani shakllantirish, talabgorni nodavlat sud-ekspertiza tashkilotida sud eksperti sifatida faoliyat olib borishga tayyorlashdan iborat.

Sud ekspertlarini qayta tayyorlash sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar asosida tashkil qilinadi.

Quyidagilar sud ekspertlarini qayta tayyorlashning vazifalari hisoblanadi:

– tinglovchilarni sud ekspertizasi bo‘yicha mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi mavjud ilmiy axborot resurslari, ilmiy va o‘quv adabiyotlari bilan tanishtirish;

– tinglovchilarda sud ekspertizalarining muayyan turi bo‘yicha zamonaviy fan va texnologiyaga muvofiq bo‘lgan, ilmiy asoslangan metodikalar amalda qo‘llanilishi ko‘nikmalarini shakllantirish;

– tinglovchilarni muayyan sud ekspertizasining shakllanish bosqichlari to‘g‘risida, zamonaviy sud ekspertizasining so‘nggi yutuqlari va imkoniyatlari haqida dolzarb axborot bilan ta’minlash;

– sud ekspertlik faoliyatida zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni yetarlicha shakllantirish uchun lozim bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

– tinglovchilarda mustaqil ravishda sud ekspertizasini o‘tkazish va sud ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish uchun zarur bo‘lgan malakani shakllantirish.

Sud ekspertlarini qayta tayyorlash ixtiyoriylik asosida sud ekspertizasining muayyan turi bo‘yicha kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish istagini bildirgan talabgorlar uchun tashkil etiladi.

Qayta tayyorlash jarayonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:
davlat muassasalarida o'qitish;
masofaviy ta'lim.

Davlat muassasalarida o'qitish 1+3, 2+2 yoki 3+1 sxemalari bo'yicha (tegishli ravishda 25, 50 yoki 75% – mustaqil ravishda bilim orttirish, 75, 50 yoki 25% – bevosita davlat muassasalarida) masofadan qayta tayyorlash yoki manfaatdor tashkilotlar bazasida yakka tartibdagi topshiriqlarni bajarish shaklida tashkil etilishi mumkin.

O'qitishning bunday shakllari axborot uzatishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi.

Masofaviy ta'lim tegishli soha mutaxassislarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va masofadan o'qitishni amalga oshirishga mo'ljallangan maxsus ta'lim dasturlari orqali onlayn hamda oflayn tarzda amalga oshiriladi.

Sud ekspertini qayta tayyorlash shartnomaga muvofiq pullik asosda o'tkaziladi.

Sud ekspertizasining muayyan turi bo'yicha uzluksiz ravishda o'n yil davomida sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirgan sud eksperti hamda uzluksiz ravishda kamida so'nggi uch yil davomida sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirib kelayotgan davlat sud ekspertlari ushbu ixtisoslik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini o'tmasdan yakuniy imtihon topshirishga haqli.

Sud eksperti sertifikatini olgandan keyin uzluksiz ravishda besh yil davomida o'z ixtisosligi bo'yicha sud-ekspertlik faoliyatini olib bormagan shaxs faqat qayta tayyorlash kurslaridan takroran muvaffaqiyatli o'tgandan keyin sud ekspertizasini o'tkazishga haqli.

Davlat muassasalarida sud ekspertlarini qayta tayyorlash o'quv dasturlari va rejalari asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotining rahbari sud ekspertlarining o'z vaqtida malakasi va huquqiy bilimlarini oshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni sud-ekspertiza sohasida kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim prinsipiga muvofiq bakalavr yoki magistratura bosqichlarida ta'lim olayotgan davrda olti oylik ekspertlar tayyorlash kurslarida amalga oshirish imkoniyati yaratilib, Hukumatning 2021-yil 22-noyabrdagi 706-son qarori bilan Sud-ekspertiza sohasida dual ta'lim bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Savol: Davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyatini moliyalashtirish tartibi qanday?

Javob: «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 25-moddasiga ko‘ra, davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari fuqarolik ishlari va iqtisodiy ishlar bo‘yicha sud ekspertizalarini o‘tkazganlik uchun to‘lov undirishga haqlidir. Bunda sud da‘vo taqdim etgan hamda da‘voni quvvatlayotgan davlat organlari davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan o‘tkazilgan sud ekspertizalari uchun to‘lovdan ozod etiladi. To‘lov miqdori va mazkur mablag‘larni sarflash tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–6256-son Farmoniga asosan, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga **Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga ko‘ra shartnoma asosida** jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq, sud ekspertizasi turlari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish huquqi berildi. Bunda, tadqiqot natijalariga ko‘ra **mutaxassis fikri** taqdim etiladi.

Oldingi o‘rinlarda qayd etilganidek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 706-son qaroriga muvofiq, 51 xil sud ekspertizasi turlariga ruxsat berishni o‘z ichiga olgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan sud ekspertizasi turlari bo‘yicha tadqiqotlar ro‘yxati tasdiqlangan.

Bugungi kunda ushbu ro‘yxatdagi tadqiqot turlari bo‘yicha davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilib, natijasiga ko‘ra **mutaxassis fikri** taqdim etilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-dekabrda «Sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 705-son qaroriga asosan **davlat sud-ekspertiza muassasalariga** ularning byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larining **50 foizgacha** bo‘lgan qismini sud-ekspertiza muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflashga ruxsat etilgan hamda tizimida davlat sud-ekspertiza muassasalari bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralariga davlat sud-ekspertiza muassasalari tushumlaridan foydalanish to‘g‘risidagi tartibni Moliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlash huquqi berilgan.

Savol: Ekspert va mutaxassisning qanday farqli jihatlari mavjud?

Javob: Jinoyat-protsessual kodeksining 67-moddasiga ko‘ra, xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan har qanday jismoniy shaxs ekspert sifatida chaqirilishi mumkin.

Ushbu Kodeksning 69-moddasiga muvofiq, tergov va sud muhokamasini o‘tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqiriladi. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin.

Himoyachining iltimosnomasiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan mutaxassis tushuntirish berish uchun chaqirilishi mumkin.

Tergov va sud muhokamasini o‘tkazishda ilmiy-texnika vositalarini (magnitofon, videomagnitofon, kinoga olish apparatlari va boshqa apparatlarni) qo‘llash uchun mutaxassis chaqirilishi mumkin.

Birinchidan, mutaxassis fikri maslahat tusida bo‘ladi va tajribali surishtiruvchi, tergovchi va sudyaning yana bir bor o‘z harakatlariga ishonchni kuchaytiradi. Ayrim hollarda surishtiruvchi, tergovchi va sudyalar ham bunday bilimga ega bo‘ladi, ekspertiza esa ko‘pchilik ilg‘ay olmaydigan, ba’zida allaqachon yo‘qolib ketgan dalillarni qayta tiklashga yordam beradi;

Ikkinchidan, mutaxassis ekspertdan farqli ravishda tadqiqot olib bormaydi, balki faqatgina dalillarni aniqlashga, olishga va mustahkamlashga yordam beradi, xolos, ekspert esa tadqiqot natijasi bo‘yicha xulosa beradi va uning to‘g‘riligi uchun javobgar hisoblanadi;

Uchinchidan, ekspert xulosasiga ekspert shaxsan javobgar hisoblanadi, mutaxassisning mutaxassislik fikri maslahat ko‘rinishiga ega bo‘lib, tegishli jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lmaydi.

Savol: Sud-ekspertiza qachondan boshlab tayinlangan hisoblanadi?

Javob: «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 17-moddasiga ko‘ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o‘tkazish asoslaridir. Sud ekspertizasi tegishli qaror yoki ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran tayinlangan hisoblanadi.

Savol: Davlat sud-ekspertiza muassasalarining faoliyatini tashkiliy va ilmiy-uslubiy ta’minlash kim tomonidan amalga oshiriladi?

Javob: «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 26-moddasiga ko‘ra, davlat sud-ekspertiza muassasalarining faoliyatini tashkiliy ta’minlash, ular qaysi

davlat organlari tasarrufida bo'lsa, o'sha davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud ekspertizalarini o'tkazishni ilmiy-uslubiy ta'minlash tegishli davlat sud-ekspertiza muassasalariga yuklatiladi.

Savol: Davlat sud-ekspertlik muassasalariga ilmiy-uslubiy rahbarlik qaysi vazirlik tomonidan amalga oshiriladi va bu borada qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishni va unga ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizomga asosan vazirlik O'zbekiston Respublikasi davlat sud-ekspertlik muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF–6256-son Farmoniga muvofiq, Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda 15 ta shtat birligidan iborat Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish belgilangan.

Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilangan:

«sud ekspertizasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga ilmiy-uslubiy ko'mak berish;

sud-ekspertlik vazifalarini hal qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va yagona ilmiy-metodik yondashuvlarini ishlab chiqish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarga uslubiy yordam ko'rsatish;

sud-ekspertlik faoliyatiga fan va texnika yutuqlarini joriy etish bo'yicha choralarni ko'rish;

sud ekspertizasi sohasidagi tizimli muammolarni kompleks o'rganish va ularni hal etishga doir ilmiy asoslangan takliflar va ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarning malakali sud-ekspertiza xulosalariga bo'lgan ehtiyojlarini doimiy ravishda o'rganish orqali sud

ekspertizasining yangi turlari hamda uslubiyotlarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar kiritish;

sud ekspertizasi sohasiga rivojlangan axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni keng joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish».

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 704-son qaroriga asosan, sud-ekspertiza faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalaridan ekspertlik amaliyotida foydalanishni kengaytirish maqsadida Institutning **Idoralararo ilmiy-uslubiy kengashi** tashkil qilingan.

Kengash quyidagilarni amalga oshiradi:

«ishlab chiqilgan uslubiy materiallarning ilmiy va amaliy asoslanganligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

sud-ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan metodlarni va ekspertiza sohasidagi texnologiyalarni yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi;

ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini sud-ekspertlik amaliyotiga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini jihozlashga doir minimal talablarni ishlab chiqadi va uni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga kiritadi;

sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshirishda xorijiy tajribadan foydalanish xususida tavsiyalar beradi;

sud-ekspertiza faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashning boshqa masalalarini ko'rib chiqadi».

Kengashga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i rahbarlik qiladi.

Savol: Davlat sud-ekspertiza muassasalarining sud-ekspertlik faoliyatini axborot bilan ta'minlash qanday amalga oshiriladi?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 27-moddasiga ko'ra, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar davlat sud-ekspertiza muassasasi rahbarining yozma so'roviga ko'ra sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishi shart. Bunda davlat sud-ekspertiza muassasalari davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi olingan ma'lumotlarning oshkor qilinmasligini ta'minlaydi.

Savol: Sud-ekspertizani amalga oshirish muddatlari qanday?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o'tkazish asoslaridir. Sud ekspertizasi tegishli qaror yoki ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran tayinlangan hisoblanadi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tekshirishlarni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tekshirish obyektlari hamda ish materiallarini taqdim etadi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tekshirish uchun namunalar oladi va ularni protsessual qonunda belgilangan tartibda ishga qo'shib qo'yadi. Zarur hollarda, bunday namunalarni olish sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan sud eksperti yoki mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi.

Agar tekshirish uchun namunalar olish tekshirishlarning bir qismi hisoblansa va sud ekspertizasiga taqdim etilgan tekshirish obyektlaridan foydalanilgan holda sud eksperti tomonidan amalga oshirilsa, sud ekspertizasi tugallanganidan keyin mazkur namunalar uni tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi yoxud qonunchilikda belgilangan tartibda davlat sud-ekspertiza muassasasida, agar sud ekspertizasi ushbu muassasada o'tkazilgan bo'lsa, saqlanadi.

Sud ekspertizasi qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomning 8-bandiga ko'ra ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) asosida tadqiqotlarni o'tkazish muddatlari sud ekspertizalarining hajmi va murakkabligiga, shuningdek, sud ekspertining ish hajmiga ko'ra 30 kun doirasida belgilanadi. Sud ekspertizasi turlarining murakkablik darajasi ekspertiza tashkilotining yuqori turuvchi idorasi, shuningdek, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari uchun Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tadqiqotlarni o'tkazishni 30 kun mobaynida bajarish mumkin bo'lmagan taqdirda, ekspertiza tashkiloti rahbari muddat o'tishidan 3 ish kuni oldin asoslangan holda ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga yozma yoki elektron ravishda xabar qiladi hamda ular bilan kelishgan holda qo'shimcha muddatni belgilaydi.

Advokat so'rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq tadqiqotlar o'tkazish muddatlari sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga asosan belgilanadi.

Savol: Qanday hollarda sud-ekspertiza o'tkazish tayinlangan muassasa yoki tashkilot rahbari sud-ekspertizani tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimni ijro etmasdan hamda sud-ekspertiza o'tkazish uchun taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarini qaytarish huquqiga ega?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasida davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari agar mazkur tashkilotda tekshirishlarni o'tkazish uchun tegishli mutaxassislar yoki zarur moddiy-texnik baza yoxud maxsus sharoitlar bo'lmasa, sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimni ijro etmasdan hamda sud ekspertizasini o'tkazish uchun taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarini uch kunlik muddatda qaytarish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomning 19-bandiga asosan quyidagi hollarda ish materiallari ijro etilmasdan ekspertiza tayinlashga vakolatli organ (shaxs), advokat yoki jismoniy va yuridik shaxsga qaytariladi:

tadqiqotlarni mazkur ekspertiza tashkilotida o'tkazish nazarda tutilmagan bo'lsa;

ekspertiza tashkiloti tegishli mutaxassislarga yoki asbob-uskunalarga ega bo'lmasa;

ekspertiza tayinlashga vakolati bo'lmagan organ (shaxs) tomonidan yoxud vakolatli organ (shaxs) tomonidan ekspertiza tayinlash vakolatiga kirmaydigan ishlar yuzasidan tadqiqotlar tayinlanganda.

Bunda ekspertiza tashkiloti rahbari yoki uning bevosita sud ekspertizasi yo'nalishiga mas'ul o'rinbosari tomonidan tadqiqotlar o'tkazish uchun taqdim qilingan ish materiallarini 3 kun muddatda tadqiqotlar bajarilmaganligi sabablari ko'rsatilgan holda ekspertizani tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga, advokatga, jismoniy yoki yuridik shaxslarga qaytariladi.

Shuningdek, mazkur namunaviy nizomning 10-bandida tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha xarajatlar to'lanmaganligi ish materiallarini tadqiqotlar o'tkazmasdan qaytarish uchun asos hisoblanishi belgilangan.

Bundan tashqari ushbu namunaviy nizomning 18-bandiga asosan tadqiqot o'tkazish uchun yuborilgan, uni o'tkazish imkonini bermaydigan ish materiallarini rasmiylashtirish qoidalariga rioya etilmaganligi aniqlangan kuni ekspertiza tashkiloti rahbari bu haqda ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ga, advokat yoki jismoniy yoxud yuridik shaxsga xabar qiladi.

Sud ekspertizasini tayinlagan vakolatli organ (shaxs), advokat, jismoniy yoki yuridik shaxs kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rmasa,

ekspertiza tashkiloti rahbari 30 kun o'tgach unga keyingi ish kunida ish materiallarini sud ekspertizasini o'tkazmasdan qaytaradi.

Savol: Sud ekspertining xulosasida nimalar aks ettiriladi?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasiga ko'ra, sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha sud eksperti yoxud sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir sud eksperti imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

Xulosada:

- sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy;
- sud ekspertizasini o'tkazish asosi;
- sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;
- sud eksperti (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar;

- bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun sud eksperti jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi;

- sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar;
- sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari;
- sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar;

qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va natijalari, shuningdek bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi;

- tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;

- ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar ko'rsatilishi lozim.

Xulosada huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar davlat sud-

ekspertiza muassasasida yoki boshqa tashkilotda qonunchilikda belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) talabiga binoan ishga qo‘shib qo‘yish uchun taqdim etiladi.

Agar taqdim etilgan tekshirish obyektlarining, materiallarning yoki sud ekspertining maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshirish davomida ma’lum bo‘lib qolsa, xulosa ayrim qo‘yilgan savollarga javob berishni rad etish asosini o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim.

Tekshirish tugaganidan so‘ng xulosa, tekshirish obyektlari va ish materiallari sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi.

Savol: Advokat so‘roviga ko‘ra ekspertiza o‘tkazilishi mumkinmi?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2021-yil 5-iyuldagi PF–6256-son Farmonining 7-bandiga asosan iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ish yuritishda advokatga sudga qadar tayyorgarlik va sud jarayonida ekspert xulosasini sud muhokamasida taqdim etish huquqi asosida davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida shartnoma asosida advokat so‘roviga ko‘ra ekspertiza o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishga ruxsat berildi.

2022-yilning 3-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining «**O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida**»gi O‘RQ–786-son Qonuni qabul qilindi.

Qonunga muvofiq, advokatlar kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida yana bir qancha huquqlarga ega bo‘ldi.

Jumladan, **iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ish yuritilayotganda** ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan ekspertiza o‘tkazilishini so‘rash, shuningdek, ekspertiza xulosasi ish materiallariga qo‘shib qo‘yilishini va sud tomonidan ushbu xulosa ishdagi mavjud dalillar bilan birgalikda baholanishini talab qilish huquqi shular jumlasidan.

Advokat tomonidan tayinlanadigan sud ekspertizaning afzalligi shundaki, bunda advokat shaxsan hal etilishi lozim deb topgan savollarni ekspertlar oldiga qo‘yish va ushbu savollar asosida xulosa olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa sudda tortishuv instituti tamoyilining to‘laqonli amalga oshirilishi orqali odil sudlovni yanada ta’minlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Savol: Sud-ekspertiza sohasida kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim prinsipiga muvofiq kadrlarni tayyorlash tartibi qanday?

Javob: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6256-son Farmonining 2-bandiga asosan sud-ekspertlik faoliyatida kadrlar salohiyatini oshirish hamda sud ekspertlarini tayyorlashning samarali tizimini yaratish sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Shuningdek, ushbu Farmonga ko'ra, sud-ekspertiza sohasida kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim prinsipiga muvofiq, bakalavriat yoki magistratura bosqichlarida ta'lim olayotgan davrda shartnoma asosida tegishli ekspertiza turlari bo'yicha kamida olti oylik ekspertlar tayyorlash kurslarida amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu sohadagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni sud-ekspertiza sohasida kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim prinsipiga muvofiq bakalavr yoki magistratura bosqichlarida ta'lim olayotgan davrda olti oylik ekspertlar tayyorlash kurslarida amalga oshirish imkoniyati yaratilib, Hukumatning 2021-yil 22-noyabrdagi 706-son qarori bilan Sud-ekspertiza sohasida dual ta'lim bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Savol: Qayta sud-ekspertizani o'tkazish tartibi qanday?

Javob: «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasiga ko'ra, xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud ekspertizasini o'tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertizasi tayinlanadi.

Qayta sud ekspertizasi tayinlanganda sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkin.

Qayta sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda qayta sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) birinchi (oldingi) sud ekspertizasi xulosasiga qo'shilmaganligi sabablari ko'rsatilishi lozim.

Qayta sud ekspertizasini o'tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o'tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o'tkazishda hozir

bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirish o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

Savol: Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari reytingi yuritilishi tartibi qanday?

Javob: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan uning rasmiy veb-saytida belgilangan tartibda joylashtiriladigan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari reytingi yuritiladi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari reytingi quyidagi mezonlar asosida yuritiladi:

- shtatdagi sud ekspertlarining ilmiy darajasi;
- laboratoriyalarning «Tadqiqot va kalibrovka laboratoriyalarining vakolatligiga qo'yiladigan umumiy talablar (ISO/IEC 17025)»ga muvofiq akkreditatsiyadan o'tkazilganligi;
- o'tkaziladigan sud ekspertizasining turlari;
- qayta o'tkazilgan sud ekspertizasida o'z tasdig'ini topmagan ekspertiza xulosalari soni.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari har yili yanvar oyi yakuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga shtatdagi sud ekspertlarining ilmiy darajasi, laboratoriyalarning «Tadqiqot va kalibrovka laboratoriyalarining vakolatligiga qo'yiladigan umumiy talablar (ISO/IEC 17025)»ga muvofiq akkreditatsiyadan o'tkazilganligi, o'tkaziladigan sud ekspertizasining turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga taqdim etadi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan va qayta sud ekspertizasida o'z tasdig'ini topmagan ekspertiza xulosalari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim qilinadi.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud eksperti tomonidan berilgan va qayta sud ekspertizasida o'z tasdig'ini topmagan sud-ekspertiza xulosasi to'g'risidagi ma'lumot Sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi sertifikat olgan shaxslarning yagona reestriga kiritiladi va besh yil davomida saqlanadi.

Sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi sertifikat olgan shaxslarning yagona reestrini yuritish ushbu Qarorning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Savol: Sud ekspertlarini qayta tayyorlash o‘quv kurslariga qabul qilish tartibi qanday?

Javob: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq qayta tayyorlash o‘quv kursiga qabul qilishni tashkil etish uchun har yili davlat muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan toq sondan iborat qabul komissiyasi tashkil etiladi. Ushbu qabul komissiyasi kalendar yil davomida faoliyat yuritadi.

Qabul komissiyasi tarkibiga davlat muassasasi rahbari, tegishli soha bo‘yicha tajribali sud ekspertlari hamda davlat muassasasi bo‘ysunadigan vazirlik yoki idora vakili kiradi. Davlat muassasasi rahbari komissiya raisi hisoblanadi. Komissiya a‘zolari ichidan uning kotibi tayinlanadi.

Komissiya uning uchdan ikki qismi a‘zolari hozir bo‘lganda vakolatli hisoblanadi. Komissiya majlislarida kotib tomonidan majlis bayonnomasi yuritiladi.

Sud ekspertlarini qayta tayyorlash o‘quv kurslari, qoida tariqasida, yiliga ikki marta sentabr va mart oylarida tashkil etiladi.

Qayta tayyorlash o‘quv kurslariga talabgorlardan hujjat qabul qilish o‘quv kursi boshlanishidan ikki oy oldin boshlanadi va o‘quv kursi boshlanishiga bir oy qolganda to‘xtatiladi.

Talabgorlarni o‘quv kursiga qabul qilish suhbat shaklida o‘tkaziladi va o‘quv kursi boshlanishidan bir oy oldin boshlanadi.

Qayta tayyorlash o‘quv kursi tashkil etilishi, o‘quv kurslarining tegishli sud-ekspertlik ixtisosliklari bo‘yicha davomiyligi, to‘lov miqdori, hujjatlar qabul qilinadigan va suhbat o‘tkaziladigan joy to‘g‘risida davlat muassasasining veb-saytida hamda ommaviy aborot vositalarida e‘lon beriladi.

Talabgor tegishli davlat muassasasiga onlayn tarzda yoki bevosita quyidagi hujjatlarni topshiradi:

– davlat muassasasi rahbari nomiga ariza (arizada talabgorning muassasada ta‘lim beriladigan tillardan birida ta‘lim olish va imtihon topshirishni xohlashi ko‘rsatiladi);

– nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti nomidan tavsiyanoma (agar shaxs nodavlat sud-ekspertiza tashkilotida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa).

Bunda hujjatlarni onlayn tarzda topshirish davlat muassasasining rasmiy veb-saytida amalga oshiriladi.

Quyidagi hujjatlar davlat muassasasi tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotlardan mustaqil ravishda, shu jumladan «Elektron hukumat» tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so‘rab olinadi:

– pasport nusxasi;

- 3,5x4,5 hajmdagi ikki dona fotosurat;
- ma'lumoti to'g'risidagi diplom nusxasi;
- mehnat daftarchasining ish joyida tasdiqlangan nusxasi yoxud undan ko'chirma yoki ekspertlik faoliyati va turini tasdiqlovchi boshqa hujjat.

Qabul komissiyasi kotibi tomonidan har bir talabgor uchun hujjatlar yig'majildi shakllantiriladi va qabul komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

Suhbat talabgorning umumiy dunyoqarashi va kasbga qiziqishi, soha bo'yicha bilimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida qabul komissiyasi tomonidan o'zbek yoki rus tilida o'tkaziladi.

Suhbat natijasi bo'yicha o'qishga tavsiya etilgan talabgorga ikki nusxada qayta tayyorlash o'quv kursida o'qish to'g'risidagi shartnomani imzolash taklif etiladi.

Qayta tayyorlash to'g'risidagi shartnomani imzolagan va to'lovni amalga oshirgan talabgorlar qayta tayyorlash o'quv kurslariga davlat muassasasi rahbarining buyrug'i bilan qabul qilinadi.

Savol: Ekspertizani o'tkazish muddatlarini hisoblash tartibi qanday?

Javob: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomning 8-bandiga asosan ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) asosida tadqiqotlarni o'tkazish muddatlari sud ekspertizalarining hajmi va murakkabligiga, shuningdek, sud ekspertining ish hajmiga ko'ra 30 kun doirasida belgilanadi. Sud ekspertizasi turlarining murakkablik darajasi ekspertiza tashkilotining yuqori turuvchi idorasi, shuningdek, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari uchun Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tadqiqotlarni o'tkazishni 30 kun mobaynida bajarish mumkin bo'lmagan taqdirda, ekspertiza tashkiloti rahbari muddat o'tishidan 3 ish kuni oldin asoslangan holda ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga yozma yoki elektron ravishda xabar qiladi hamda ular bilan kelishgan holda qo'shimcha muddatni belgilaydi.

Advokat so'rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq tadqiqotlar o'tkazish muddatlari sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga asosan belgilanadi.

Shuningdek, mazkur Namunaviy nizomning 9-bandiga muvofiq ekspertiza tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish muddatlari ish materiallari ekspertiza tashkilotiga tushgan kundan keyingi

ish kundan boshlab hisoblanadi va sud eksperti xulosasi ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga yuborilgan kunda tugaydi.

Advokat so‘rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq tadqiqotlarni o‘tkazish muddatlari shartnomaga ko‘ra to‘lov amalga oshirilganlik to‘g‘risidagi hujjatlar ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan kundan boshlab hisoblanadi va sud eksperti xulosasi yoki mutaxassis fikri manfaatdor shaxsga yuborilgan kunda tugaydi.

Sud eksperti tomonidan tadqiqotlarni o‘tkazish muddatlari quyidagi davrlarga to‘xtatib turiladi:

– ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs), advokat hamda jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan taqdim etilgan ish materiallaridagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish to‘g‘risida sud eksperti (mutaxassis)ning iltimosnomasini ko‘rib chiqish davriga;

– tadqiqotlarni o‘tkazishni 30 kun mobaynida bajarish mumkin bo‘lmagan taqdirda uni o‘tkazish muddatlarini kelishib olish to‘g‘risida yuborilgan xabarni ko‘rib chiqish davriga;

– sud ekspertining xizmat safarida, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi yoki mehnat ta‘tilida bo‘lish davriga, sud ekspertizasini bajarishni boshqa sud ekspertiga topshirish mumkin bo‘lmaganda.

Qonunchilikda va ushbu Namunaviy nizomda nazarda tutilmagan boshqa asoslar bo‘yicha sud ekspertizasini o‘tkazish muddatlarini to‘xtatib turishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Savol: Ekspertiza o‘tkazishning ikki va undan ko‘p ekspertiza muassasalari tomonidan amalga oshirish tartibi qanday?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertisasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomning 16-bandiga asosan sud ekspertizasini o‘tkazish ikki va undan ko‘p ekspertiza tashkilotlariga topshirilgan taqdirda ularni tayinlash to‘g‘risidagi qaror (ajrim)da mazkur sud ekspertizasining qanday mutaxassisliklarga ega bo‘lgan sud ekspertlari tomonidan o‘tkazilishi kerakligi, komissiya faoliyatini tashkil etish qaysi ekspertiza tashkilotiga yuklanayotganligi hamda tekshiriladigan obyektlar va boshqa ish materiallari qaysi ekspertiza tashkilotiga yuborilganligi ko‘rsatiladi.

Bunda ekspertizani tayinlash to‘g‘risidagi qaror (ajrim) har bir ekspertiza tashkilotiga asl nusxada yuboriladi.

Savol: X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari va funksiyalarini aytib bering.

Javob: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–6256-son Farmoniga asosan, Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda 15 ta shtat birligidan iborat Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish belgilangan.

Farmonga asosan quyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilangan:

«sud ekspertizasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga ilmiy-uslubiy ko‘mak berish;

sud-ekspertlik vazifalarini hal qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va yagona ilmiy-metodik yondashuvlarini ishlab chiqish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta‘lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarga uslubiy yordam ko‘rsatish;

sud-ekspertlik faoliyatiga fan va texnika yutuqlarini joriy etish bo‘yicha choralarni ko‘rish;

sud ekspertizasi sohasidagi tizimli muammolarni kompleks o‘rganish va ularni hal etishga doir ilmiy asoslangan takliflar va ta‘sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarning malakali sud ekspertiza xulosalariga bo‘lgan ehtiyojlarini doimiy ravishda o‘rganish orqali sud ekspertizasining yangi turlari hamda uslubiyotlarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha takliflar kiritish;

sud ekspertizasi sohasiga rivojlangan axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish».

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti to‘g‘risidagi nizomning 9-bandida mazkur institut o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq bir qator funksiyalarni amalga oshirishi qayd etilgan.

Savol: Ekspertiza o‘tkazish uchun yuboriladigan materiallarni rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering.

Javob: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini

o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomga asosan ekspertiza tayinlashga vakolatli organ (shaxs) tomonidan tadqiqotlarga sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim), tadqiqot obyektlari va ish materiallari, shuningdek, tadqiqotlarni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan sud ekspertisasi predmetiga taalluqli ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlar ekspertiza tashkilotiga taqdim etilishi kerak.

Advokatlar tomonidan sud ekspertisasi o'tkazish tayinlanganda sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi advokatlik so'rovi, ishonch bildiruvchi shaxs roziligini tasdiqlovchi hujjat, ish bo'yicha order, to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat, tadqiqot obyektlari va ish materiallari, shuningdek, tadqiqotlarni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan sud ekspertisasi predmetiga taalluqli ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlar taqdim etilishi kerak.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ekspertiza tashkilotiga tadqiqotlarni o'tkazish to'g'risidagi murojaat, to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat, tadqiqot obyektlari va ish materiallari, shuningdek, tadqiqotlarni o'tkazish va mutaxassis fikri berilishi uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan ekspertiza predmetiga taalluqli ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlar taqdim etilishi kerak.

Tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ish materiallari va tadqiqot obyektlarini hamda qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish lozim bo'lganda sud eksperti tomonidan ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs), advokat, jismoniy va yuridik shaxsga 3 ish kunida yozma yoki elektron iltimosnomalar yuboriladi.

Iltimosnomani belgilangan muddatda elektron shaklda yuborish imkoniyati bo'lmaganda, bu haqda dalolatnoma tuziladi va kuzatuv materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Ekspertiza tashkiloti advokatning so'rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o'rganadi va ularga 3 ish kuni ichida shartnoma rasmiylashtirish uchun taqdim etiladi.

Sud ekspertizalarini tayinlash to'g'risidagi hujjatlarning faksimil va yorug' sezgir qog'ozga ko'chirilgan nusxalarini taqdim etishga yo'l qo'yilmaydi.

Savol: Qanday hollarda davlat eksperti sifatida attestatsiyadan o'tganlik to'g'risida berilgan guvohnoma bekor qilinadi?

Javob: Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 16-dekabrda 300-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomga asosan davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazish uchun ekspert muassasasida Ekspert-malaka komissiyasi tashkil etiladi.

Ekspert-malaka komissiyasi tomonidan davlat sud eksperti tomonidan ekspert muassasasi rahbari tomonidan aniqlanadigan sud ekspertizalarini o'tkazish tartibi qo'pol ravishda buzilganligi aniqlangan taqdirda davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida berilgan guvohnoma bekor qilingan holda davlat sud eksperti malakasidan mahrum etish masalalarini ko'rib chiqadi.

Savol: Qanday hollarda sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi sertifikat bekor qilinadi?

Javob: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to'g'risida nizomning 37-bandiga ko'ra, sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi sertifikat quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

- sud eksperti xulosasi ustidan tushgan shikoyat tasdig'ini topsa;
- sud ekspertining faoliyati ushbu Nizom talablariga muvofiq emasligi aniqlansa;
- tegishli sud ekspertizasini xavfsiz amalga oshirishga imkon beradigan va standartlar talablariga mos bo'lgan moddiy-texnik bazasi mavjud bo'lmasa;
- sud-ekspertlik faoliyati bilan shug'ullanish davrida belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganda;
- qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganda;
- belgilangan tartibda har ikki yilda malakasi va huquqiy bilimlarini oshirmasa.

Savol: Sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi guvohnoma (sertifikat)ning amal qilish muddati qancha?

Javob: Sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi sertifikat sud eksperti tomonidan har ikki yilda malakasi va huquqiy bilimlarini oshirib borilganda muddatsiz amal qiladi.

Savol: Soch tolasidan ham DNK tahlilini o'tkazsa bo'ladimi?

Javob: Soch tolasini ham DNK obyekti hisoblanadi. Ammo soch tolasini ildiz qismi bilan bo'lishi lozim. Qirqib olingan soch tolasida yadro DNKsi yo'q. Soch tolasini olish «invaziv» ya'ni og'riq berib olish usuli hisoblanadi. Shu sababli DNK laboratoriyada solishtirma namuna sifatida shaxslardan soch tolasini olinmaydi. Ammo jinoyat ishlarida voqea joyidan topilgan soch tolalari bo'yicha ekspertiza ko'p tayinlanadi. Aksariyat holatlarda ildiz qismi bo'lsa albatta yaroqli natija

beriladi va ushbu soch tolasini kim tomonidan qoldirilganligini identifikatsiya qilinadi.

Savol: DNK tahlili qanchalik darajada to‘g‘ri?

Javob: DNK tahlili juda yuqori aniqlik darajasiga ega. DNK tahlili natijalarining aniqlik darajasi 100% bo‘lsa ehtimollik darajasi 99.99 foizni tashkil etadi. Nasliy ma’lumotlar DNKda joylashgan bo‘ladi, ularning ketma-ketligi genlar deb ataladi. Ushbu genlarning majmuasi genom deb ataladi. Odam 23 ta xromosomalar juftligiga ega. Har bir odam ushbu juft xromosomalardan birini otasidan, birini onasidan oladi. DNK tadqiqotlari aynan shu qonuniyatga asoslangan. Ya’ni bolaning har bir tekshirilayotgan gen uchastkasidagi bitta ma’lumot, yoki boshqacha qilib aytganda allel otasiga to‘g‘ri kelsa, ikkinchi allel onasiga to‘g‘ri kelishi kerak. Ikki va undan ortiq allellarda moslik kuzatilmaganda otalik yoki onalik tasdiqlanmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki qanchalik ko‘p lokuslar, ya’ni gen uchastkalari tekshirilsa, shunchalik aniqlik darajasi oshib boradi. Ma’lumot uchun, aynan 99.99% aniqlikda xulosa berish uchun 8 ta lokus tekshirilsa etadi. Hozirgi kunda laboratoriyada 16 tadan 28 tagacha lokuslarni tekshiruvchi maxsus reagentlar to‘plamlari bilan ishlanadi.

Savol: DNK tahlilini necha yoshdan boshlab tekshirsa bo‘ladi?

Javob: DNK tahlili umuman yoshga bog‘liq emas. Tuxumhujayra otalangandan boshlab, unda qanday xromosomalar juftligi tiklangan bo‘lsa, bola rivojlanish davrida, tug‘ilganida, yoshi ulug‘ keksa holati, ba’zi bir hujayralar, masalan, suyak to‘qimalari uning vafot etganidan keyin ham ancha vaqtgacha aynan o‘sha xromosomalar juftligiga ega bo‘ladi. Shu sababdan DNK laboratoriyasida bola tug‘ilishi bilan uni DNK tahlilini o‘tkazsa bo‘ladi.

Savol: Tug‘ilmagan bolaning DNK tahlilini o‘tkazsa bo‘ladimi?

Javob: Bo‘ladi albatta, lekin boladan namuna olish zarur bo‘ladi. Ushbu jarayonda bola tushib qolish xavfi bo‘lganligi sababli, bizning amaliyotimizda bu qo‘llanilmaydi. Ba’zi bir chet el laboratoriyalarida «noinvaziv prenatal diagnostika» nomini olgan usul qo‘llaniladi. Ushbu usul tug‘ilmagan bolaning «fetal DNK»sini onaning qonidan ajratib olib tahlil qilishga asoslangan. Ammo ushbu usul uchun maxsus, juda qimmat uskunalarni talab qilganligi, tahlilning tannarxi juda qimmat bo‘lishi va amaliyotda ko‘p talab qilinmasligi bois bizning laboratoriyalarimizda bunday tadqiqotlar bajarilmaydi.

Savol: Biologik otalikni otaning namunasisiz ham tekshirsa bo‘ladimi?

Javob: Biologik otalikni qat’iy belgilash uchun taxmindagi otaning namunasi zarur. Ammo ba’zi bir holatlarda, masalan, biologik ota vafot etgan bo‘lishi mumkin, chet elda bo‘lganligi yoki boshqa bir sabablarga ko‘ra namuna topshirishning imkoniyati yo‘q holatlarda **uning yaqin qarindoshlari namunalari orqali biologik otalikni tekshirib ko‘rsa bo‘ladi**. Misol uchun, uning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari namunalari topshirilganda qarindoshlikni ma’lum bir miqdorda aniqlash mumkin. Qarindoshlarning soni qancha ko‘p bo‘lsa, ushbu turdagi tadqiqotlarning aniqlik darajasi oshadi.

Savol: Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha anonim murojaat qilish tartibi qanday?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 14-martdagi 6-mh-son buyrug‘iga asosan odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (2022-yil 15-mart, ro‘yxat raqami 3353) tasdiqlangan.

Mazkur Nizom odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Nizomga asosan, odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud ekspertizasi markazi tomonidan buyurtmachilarning murojaatlari asosida odam DNKsi sud-biologik ekspertizasiga (birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali qarindoshlikni, yadro DNKsi bo‘yicha genotipni, Y-xromosoma bo‘yicha gaplogruppani aniqlash) oid tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasiga oid tadqiqot natijalari bo‘yicha rasmiylashtirilgan mutaxassis fikri tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Hozirgi kunda odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyalari Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida hamda Markazning Samarqand viloyati bo‘limida o‘tkazilmoqda.

(Mavzuga doir ma’lumtlarni quyidagi havoladan izlang: <https://sudex.uz/?p=5039>)

Savol: Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti shtatlari soniga nisbatan qanday talablar mavjud?

Javob: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, ushbu Nizom nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizomga muvofiq, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti shtatida uning rahbaridan tashqari bir xil yoki turli xil sud ekspertizasi yo‘nalishi bo‘yicha sud eksperti sertifikatiga ega kamida **ikki nafar sud eksperti bo‘lishi lozim**.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti rahbari sifatida faqat sud eksperti faoliyat olib borishi mumkin.

Savol: Sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyati deganda nimalar nazarda tutiladi?

Javob: Sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyati quyidagilarni nazarda tutadi:

- sud ekspertizasi sohasidagi bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- mustaqil ijodiy fikrlash hamda sohaga oid huquqiy normalarni to‘g‘ri, bir xilda tushunish va qo‘llash, ularning mazmunini aniqlay olish;
- sud ekspertizalarining metodikalarini bilish, ularni tadqiqotlar o‘tkazishda mustaqil va to‘g‘ri qo‘llay olish;
- dastlabki, qayta, qo‘shimcha, komissiyaviy va kompleks ekspertizalar bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkaza olish;
- sud ekspertizasi sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini mustaqil qo‘llash, Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishning amaliy ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazishda mavjud xatolarni aniqlay olish hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini bilish;
- o‘z faoliyatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishning asoslarini bilish.

Savol: Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qanday javobgarlik mavjud?

Javob: «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 31-moddasiga ko‘ra, sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi

to'g'risidagi namunaviy nizomning 6-bandiga asosan, jinoiy javobgarlikka olib kelmaydigan tarzda tadqiqotlar o'tkazish tartibini buzganligi va o'z vazifalariga vijdonan munosabatda bo'lmaganligi uchun sud eksperti qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga asosan yolg'on guvohlik berish, ya'ni surishtiruv olib borish, dastlabki tergov chog'ida yoki sudda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud **ekspertning bila turib yolg'on xulosa berishi**, xuddi shuningdek tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi – uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

Savol: Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan qaysi tadqiqot turlarini o'tkazishga ruxsat berilgan?

Javob: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4125-son qaroriga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini tashkil etilgan hamda **44 ta** tur sud-ekspertizalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazishga ruxsat berilgan.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o'tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizalari turlarining RO'YXATI

T/r	Ekspertiza turlari	
1.	Sud-xatshunoslik ekspertizasi	23. Hujjatlarning sud-texnikaviy ekspertizasi
2.	Sud-san'atshunoslik ekspertizasi	24. Sud-portret ekspertizasi
3.	Sud-trasologik ekspertizasi	25. Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning sud ekspertizasi
4.	Polimer materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning sud ekspertizasi	26. Lok-bo'yoq materiallari va qoplamalarining sud ekspertizasi
5.	Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi	27. Neft mahsulotlari va yoqilg'i-moylash materiallarining sud ekspertizasi
6.	Tabiiy minerallar sud ekspertizasi	28. Shisha buyumlari va silikatli qurilish materiallarining sud ekspertizasi
7.	Metall buyumlari va qotishmalarining sud ekspertizasi	29. Dori vositalarining sud ekspertizasi
8.	Tabiiy noma'lum moddalarning sud ekspertizasi	30. Tarkibida spirt bo'lgan suyuqliklar va ularning izlari sud ekspertizasi
9.	Maxsus markerlar (ko'rsatkichlar) sud ekspertizasi	31. Oziq-ovqat mahsulotlarining sud ekspertizasi
10.	Sud-biologik ekspertizasi	32. Sud-botanik ekspertizasi
11.	Sud-zoologik ekspertizasi	33. Sud-ornitologiya ekspertizasi
12.	Sud-ixtiologik ekspertizasi	34. Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi
13.	Sud-transport-trasologiya ekspertizasi	35. Sud-transport-baholash ekspertizasi
14.	Sud-iqtisodiy ekspertizasi	36. Sud-buxgalteriya ekspertizasi

15.	Sud-moliya-kredit ekspertizasi	37.	Mehnat iqtisodiyoti sud ekspertizasi
16.	Sud-rejali-iqtisodiyot ekspertizasi	38.	Sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi
17.	Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi	39.	Sud-qurilish-texnikaviy ekspertizasi
18.	Sud-yer ekspertizasi	40.	Sud-tovarshunoslik ekspertizasi
19.	Sud-fonografiya ekspertizasi	41.	Videomateriallarning sud ekspertizasi
20.	Sud-ekologik ekspertizasi	42.	Sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi
21.	Sud-filologik ekspertizasi	43.	Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi
22.	Sud-psixologik ekspertizasi	44.	Sud-elektrotexnikaviy ekspertizasi

Savol: Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining sud ekspertlari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etiladigan davlat muassasalari qaysilar?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4125-son qarori bilan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining sud ekspertlari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etiladigan davlat muassasalarining ro‘yxati tasdiqlangan.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi
PQ-4125-son qaroriga asosan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining sud
ekspertlari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil
etiladigan davlat muassasalarining
RO‘YXATI**

T/r	Muassasalar	Ekspertiza turlari
1.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi	Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning sud ekspertizasi
		Polimer materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning sud ekspertizasi
		Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalarining sud ekspertizasi
		Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi
		Neft mahsulotlari va yoqilg‘i-moylash materiallarining sud ekspertizasi
		Tabiiy minerallar sud ekspertizasi
		Shisha buyumlari va silikatli qurilish materiallarining sud ekspertizasi
		Metall buyumlari va qotishmalarining sud ekspertizasi
		Dori vositalarining sud ekspertizasi
		Tabiati noma‘lum moddalarning sud ekspertizasi
		Tarkibida spirt bo‘lgan suyuqliklar va ular izlarining sud ekspertizasi
		Maxsus markerlar (ko‘rsatkichlar) sud ekspertizasi
		Oziq-ovqat mahsulotlarining sud ekspertizasi
		Sud-biologik ekspertizasi
Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi		

		Sud-transport-trasologiya ekspertizasi
		Sud-transport-baholash ekspertizasi
		Sud-iqtisodiy ekspertizasi
		Sud-buxgalteriya ekspertizasi
		Sud-moliya-kredit ekspertizasi
		Mehnat iqtisodiyoti sud ekspertizasi
		Sud-rejali-iqtisodiyot ekspertizasi
		Sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi
		Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi
		Sud-qurilish-texnikaviy ekspertizasi
		Sud-yer ekspertizasi
		Sud-tovarshunoslik ekspertizasi
		Sud-fonografiya ekspertizasi
		Videomateriallarning sud ekspertizasi
		Sud-ekologik ekspertizasi
		Sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi
		Sud-filologik ekspertizasi
		Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi
		Sud-psixologik ekspertizasi
		Sud-elektrotexnikaviy ekspertizasi
2.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi	Sud-xatshunoslik ekspertizasi Hujjatlarning sud-texnikaviy ekspertizasi Sud-trasologik ekspertizasi
3.	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi	Sud-portret ekspertizasi
4.	Fanlar Akademiyasi Botanika instituti	Sud-botanik ekspertizasi
5.	Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti	Sud-zoologik ekspertizasi Sud-ornitologiya ekspertizasi Sud-ixtiologik ekspertizasi
6.	O'zbekiston Badiiy akademiyasi	Sud-san'atshunoslik ekspertizasi

**IV bob. DAVLAT SUD-EKSPERTIZA MUASSASALARI HAMDA
NODAVLAT SUD-EKSPERTIZA TASHKILOTLARI TO‘G‘RISIDA
MA‘LUMOTLAR**

T/r	Davlat sud-ekspertiza muassasasi nomi
1.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi sud ekspertiza markazi
2.	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspertiza-kriminalistika Bosh markazi
3.	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi
4.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Sud-tibbiy ekspertiza markazi
5.	O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasi
6.	O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Ekspertiza-kriminalistika bo‘limi
7.	Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi ekspert-kriminalistika bo‘linmasi
8.	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti

**1. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida
o‘tkaziladigan ekspertiza turlari to‘g‘risida
MA‘LUMOT**

T/r	Laboratoriya (bo‘lim) nomi	Ekspertiza turlari
1.	Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi	Sud-xatshunoslik ekspertizasi
		Hujjatlar texnik-kriminalistik ekspertizasi
		Sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi
		Sud-filologiya (muallifshunoslik) ekspertizasi
		Sud-lingvistik ekspertizasi
2.	Sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi	Sud-avtotexnika ekspertizasi
		Transport-trasologik ekspertiza
		Yo‘l ekspertizasi
3.	Sud-ballistika va trasologiya ekspertizasi laboratoriyasi	Sud-ballistika ekspertizasi
		Sud-izshonoslik ekspertizasi
		Sovuq qurollar ekspertizasi
4.	Sud-fonografiya ekspertizasi laboratoriyasi	Sud-fonografiya ekspertizasi
		Videohujjatlar ekspertizasi
		Sud-psixologik ekspertiza

5.	Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi	Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarning ekspertizasi
		Lok-bo'yoq materiallar va qoplamalarning ekspertizasi
		Neft mahsulotlari va Yoqilg'i-moylash materiallari ekspertizasi
		Giyohvand vositalari, psixotrop, moddalar va prekursorlar ekspertizasi
		Tarkibida spirti bo'lgan suyuqliklarning ekspertizasi
		Sud tuproqshunoslik ekspertizasi
		Metallar va qotishmalarning ekspertizasi
		Sud-botanik ekspertizasi
		Sud-zoologik ekspertiza
		Mikrozarrachalar ekspertizasi
		Boshqa biologik (sud-ornitologik, sud-ixtiologik) ekspertizasi
		Polimer materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi
		Tabiiy minerallar ekspertizasi
		Shisha, chinni buyumlar ekspertizasi
		Tabiati noaniq moddalarning ekspertizasi
		Zaharli ximikatlar va og'ir metallar tuzlari (ekologik) ekspertizasi
		Maxsus markerlarning tadqiqotlari
		Oziq-ovqatlar ekspertizasi (zaharli kimyoviy moddalar, pestitsidlar, gerbitsidlar, fungitsid va mishyakni aniqlash)
		Boshqa tur obyektlar ekspertizasi
		Dori preparatlarining ekspertizasi
Sud-ekologik ekspertizasi (suv va tuproq)		
Oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi (toksik elementlar va og'ir metal tuzlarini aniqlash)		
6.	Sud-yong'in texnikaviy ekspertizasi laboratoriyasi	Sud-yong'in texnikaviy ekspertiza
		Sud elektrotexnikaviy ekspertiza
7.	Tovarshunoslik ekspertizasi bo'limi	Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik ekspertizasi
		Oziq-ovqat mahsulotlari narxini aniqlash bo'yicha tovarshunoslik ekspertizasi
8.	Sud-iqtisodiy ekspertizasi bo'limi	Sud-buxgalteriya ekspertizasi
		Sud-moliya kredit ekspertizasi
		Sud-mehnat iqtisodiy ekspertizasi
		Sud-rejali iqtisodiy ekspertizasi
		Sud-iqtisodiy statistika ekspertizasi
		Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi
		Sud-soliq ekspertizasi (soliq tekshiruvlarini asosligini va soliqlar hisoblanishini tadqiq qilish)
		Bank sohasida boy berilgan foydani aniqlash ekspertizasi
9.	Sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo'limi	Sud-qurilish-texnik ekspertizasi
		Sud-yer ekspertizasi ekspertizasi

10.	Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasi	Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi
11.	Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi bo'limi	Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasining axborot-kompyuter texnikaviy ekspertizasi
		Sud-portlash-texnik ekspertizasi
		Kompleks ekspertizasi

Markaz manzili: Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi, 46-uy
Rasmiy sayti: <https://sudex.uz>; **e-mail:** info@sudex.uz; **e-xat:** sudex@exat.uz
Tel.: (99871) 209-11-55.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining hududiy bo'limlari haqidagi ma'lumot

T/r	Hududiy bo'lim nomi	Sud ekspertizasi turlari bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar nomi	Joylashgan manzili	Bog'lanish uchun ma'lumotlar
1.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi	Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri, «Havo yo'li» MFY, Nog'ay ko'chasi, 1-uy	Tel: (55) 104-86-21 e-mail: qoraqalpogiston@sudex.uz; e-xat: qoraqalpogistonrsem@exat.uz
		Transport-baholash tadqiqotlari		
		Transport vositalarining texnik holati tadqiqotlari		
		Transport vositalari izlarining tadqiqotlari		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
		Sud-buxgalteriya tadqiqotlari		
		Sud-moliya-kredit tadqiqotlari		
		Sud mehnat-iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-rejali iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-iqtisodiy statistika tadqiqotlari		
		Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		

		Oziq-ovqat mahsulotlari narxini aniqlash bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		
2.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Andijon viloyat bo'limi	Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari	710012, Andijon shahri, A.Navoiy shoh ko'chasi, 86-uy	Tel: (90) 140-50-55; (90) 216-98-11. e-mail: andijon@sudex.uz; e-xat: andijonrsem@exat.uz
		Transport vositalari izlarining tadqiqotlari		
		Transport-baholash tadqiqotlari		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
		Sud-buxgalteriya tadqiqotlari		
		Sud-moliyaviy-kredit tadqiqotlari		
		Sud-mehnat-iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-iqtisodiy statistika tadqiqotlari		
		Sud-rejali iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-soliq tadqiqotlari (soliq tekshiruvlarining asoslilikini va soliqlar hisoblanishini tadqiq qilish)		
		Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		
		Oziq-ovqat mahsulotlari narxini aniqlash bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		
3.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Buxoro viloyat bo'limi	Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari	Buxoro viloyati Buxoro shahri Ibn-Sino ko'chasi, 2-uy	Tel: (65) 224-01-10 e-mail: buxoro@sudex.uz; e-xat: buxororseme@exat.uz
		Transport-trasologik tadqiqotlar		
		Transport vositalarining texnik holati tadqiqotlari		
		Transportni baholash tadqiqotlari		

		Buzish qurollari, asbob-uskunalar, sovuq qurollar va ular izlarining tadqiqotlari, qismlarga (ko'ra butunni aniqlash)		
		Transport vositalarining izlari tadqiqotlari		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
4.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Jizzax viloyat bo'limi	Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari	130100, Jizzax shahri, Jizzaxlik mahallasi, X. Nosirov ko'chasi, 5-uy	Tel: (55) 151-05-01; (55) 151-05-02. e-mail: jizzax@sudex.uz ; e-xat: jizzaxrsem@exat.uz
		Transport-baholash tadqiqotlari		
		Qurilish texnikaviy tadqiqotlar		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
5.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Qashqadaryo viloyat bo'limi	Odam va hayvon izlarining tadqiqotlari (daktiloskopik tadqiqotlar)	Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Gungon MFY Jayhun ko'chasi, 1/31-uy	Tel: (75) 230-10-96 e-mail: qashqadaryo@sudex.uz ; e-xat: qashqadaryorsem@exat.uz
		Buzish qurollari, asbob-uskunalar, sovuq qurollar va ular izlarining tadqiqotlari (qismlarga ko'ra butunni aniqlash)		
		Transport vositalari izlarining tadqiqotlari		
		Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari		
		Transport vositalarining texnik holati tadqiqotlari		
		Transportni baholash tadqiqotlari		
		Transport-trasologik tadqiqotlar		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		

		<p>Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari</p> <p>Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari</p> <p>Sud-buxgalteriya tadqiqotlari</p> <p>Sud-moliya-kredit tadqiqotlari</p> <p>Sud-mehnat-iqtisodiy tadqiqotlari</p> <p>Sud-rejali iqtisodiy tadqiqotlari</p> <p>Sud-iqtisodiy statistika tadqiqotlari</p> <p>Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy tadqiqotlari</p> <p>Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari</p> <p>Oziq-ovqat mahsulotlari narxini aniqlash bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari</p>		
6.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Navoiy viloyat bo'limi	<p>Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari</p> <p>Transportni baholash tadqiqotlari</p> <p>Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari</p> <p>Sud-buxgalteriya tadqiqotlari</p> <p>Oziq-ovqat mahsulotlari narxini aniqlash bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari</p> <p>Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar</p> <p>Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari</p> <p>Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari</p>	Navoiy viloyati Navoiy shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 21-uy	<p>Tel: (79) 224-16-54 e-mail: navoiy@sudex.uz; e-xat: navoiyrsem@exat.uz</p>
7.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining	<p>Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari</p> <p>Transport-trasologik tadqiqotlar</p>	Namangan viloyati, Namangan shahri, Ibrat	<p>Tel: (69) 227-07-55 e-mail: namangan@sudex.uz;</p>

	Namangan viloyat bo'limi	Transport-baholash tadqiqotlari	ko'chasi, 6-uy	e-xat: namanganrsem@exat.uz
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
8.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Samarqand viloyat bo'limi	Sud-xatshunoslik tadqiqotlari	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Firdavsiy ko'chasi	Tel: (55) 704-02-72, (55) 704-91-63 e-mail: samarqand@sudex.uz ; e-xat: samarqandrsem@exat.uz
		Hujjatlar rekvizitlarining tadqiqotlari		
		Solishtirma qon yoki so'lak namunalari (tirik shaxslar)dan autosomal genetik profilni aniqlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta obyekt uchun)		
		Solishtirma qon yoki so'lak namunalari (tirik shaxslar)dan Y-xromosoma genetik profilni aniqlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta obyekt uchun)		
		Soch tolasi, tirnoq osti biomaterialidan autosomal yoki Y-xromosoma genetik profilni aniqlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta obyekt uchun)		
		Turli predmet tashuvchi (ashyolar)dagi ter-yog', qon, so'lak dog'laridan autosomal yoki Y-xromosoma genetik profilni aniqlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta obyekt uchun)		

		Maniy dog'laridan autosomal va Y-xromosoma genetik profilni aniqlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta obyekt uchun)		
		Suyak, tish, mushak, tog'ay, pay va abort materialdan autosomal va Y-xromosoma genetik profilni aniqlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta obyekt uchun)		
		Biologik qarindoshlik ehtimollik darajasini aniqlash matematik tahlilini o'tkazish bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta tadqiqot uchun)		
		Y-xromosoma bo'yicha populyatsion kelib chiqishni aniqlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta tadqiqot uchun)		
		Laboratoriya genetik ma'lumotlar bazasi bo'yicha ma'lumotlarni izlash bo'yicha odam DNKsining biologik tadqiqotlari (1 ta tadqiqot uchun)		
		Buzish qurollari, asbob-uskunalar, sovuq qurollar va ular izlarining tadqiqotlari (qismlarga ko'ra butunni aniqlash)		
		Transport vositalari izlarining tadqiqotlari		
		Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari		
		Transport vositalarining texnik holati tadqiqotlari		

		Transportni baholash tadqiqotlari		
		Transport-trasologik tadqiqotlar		
		Sud-buxgalteriya tadqiqotlari		
		Sud-moliya kredit tadqiqotlari		
		Sud-mehnat iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-rejali iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-iqtisodiy statistika tadqiqotlari		
		Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-soliq tadqiqotlari (soliq tekshiruvlarining asosligini va soliqlar hisoblanishini tadqiq qilish)		
		Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
9	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Sirdaryo viloyat bo'limi	Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari	Sirdaryo viloyati Guliston shahri 4-mavze 27-uy, 10-xonadon	Tel: (67) 225-04-17 e-mail: sirdaryo@sudex.uz ; e-xat: sirdaryorseme@exat.uz
		Transport vositalarining texnik holati tadqiqotlari		
		Transportni baholash tadqiqotlari		
		Transport-trasologik tadqiqotlar		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
		Sud-buxgalteriya tadqiqotlari		
		Sud-moliya kredit tadqiqotlari		
		Sud-mehnat iqtisodiy tadqiqotlari		

		Sud-rejali iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-iqtisodiy statistika tadqiqotlari		
		Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		
		Sud-soliq tadqiqotlari (soliq tekshiruvlarining asosligini va soliqlar hisoblanishini tadqiq qilish)		
		Oziq-ovqat mahsulotlari narxini aniqlash bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		
10.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Surxondaryo viloyat bo'limi	Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari	190100, Surxondaryo viloyati Termiz shahri, I. Karimov ko'chasi, 40-uy	Tel: (62) 226-05-48; (62) 226-05-49; (62) 226-05-52. e-mail: surxondaryo@sudex.uz ; e-xat: surxondaryorseme@exat.uz
		Transport vositalarining texnik holati tadqiqotlari		
		Transport-trasologik tadqiqotlar		
		Transportni baholash tadqiqotlari		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
11.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Farg'ona viloyat bo'limi	Transport-trasologik tadqiqotlar	Farg'ona viloyati Farg'ona shahri B. Marg'inoniy ko'chasi, 121-uy	Tel: (73) 244-80-74 e-mail: fargona@sudex.uz ; e-xat: fargonarseme@exat.uz
		Transportni baholash tadqiqotlari		
		Sud-mehnat iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-buxgalteriya tadqiqotlari		
		Sud-moliya-kredit tadqiqotlari		
		Sud-iqtisodiy statistika tadqiqotlari		
		Sud-rejali iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-soliq tadqiqotlari (soliq tekshiruvlarining asosligini)		

		va soliqlar hisoblanishini tadqiq qilish)		
		Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy tadqiqotlari		
12.	X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Xorazm viloyat bo'limi	Yo'l-transport hodisasi mexanizmining matematik usullari tadqiqotlari	Xorazm viloyat Urganch shahri, Taraqqiyot ko'chasi, 16A-uy	Tel: <u>(62) 226-05-48</u> <u>(62) 226-05-49</u> <u>(62) 226-05-52</u> e-mail: <u>xorazm@sudex.uz;</u> e-xat: <u>xorazmrsem@exat.uz</u>
		Transportni baholash tadqiqotlari		
		Transport-trasologik tadqiqotlar		
		Qurilish-texnikaviy tadqiqotlar		
		Yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash tadqiqotlari		
		Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari		
		Sud-buxgalteriya tadqiqotlari		
		Sud-moliya-kredit tadqiqotlari		
		Sud-mehnat iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-rejali iqtisodiy tadqiqotlari		
		Sud-iqtisodiy statistika tadqiqotlari		
		Sanoat mahsulotlari bo'yicha tovarshunoslik tadqiqotlari		

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika
sud ekspertizasi markazida o‘tkaziladigan tadqiqotlar uchun haq miqdorlari**

T/r	Ekspertiza tadqiqoti (yo‘nalish) nomi	Ekspertiza tadqiqotining murakkablik darajasi bo‘yicha 1 ta ekspertiza tadqiqotini o‘tkazishga sarflanadigan o‘rtacha vaqt me‘yori (soat)			O‘tkaziladigan tadqiqotlar uchun haq miqdorlari (bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan)			Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan (so‘mda) (330 000 so‘m)*		
